O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Fizika matematika fakulteti
Kasb talim 3-bosqich,
303-guruh talabasi
MUHITDINOVA Jning

# KURS ISHI

**MAVZU:** Ayollar paltosi uchun model tanlash, o'lchov olish va asos konstruktsiya chizmasini chizish**.**

Ilmiy rahbar: **Muhitdinova J**

Namangan-2014-yil

**MAVZU: «Ayollar paltosi uchun model tanlash, o'lchov olish va asos konstruktsiya chizmasini chizish».**

## Reja:

1. **Ust kiyimlar ssortimentining umumiy tavsiloti.**

**2 AYOLLAR PALTOSINING KONSTRUKSIYASINI QURISH UCHUN RAZMYER O'LCHOVLARINI TANLASH VA ULARNI O'LCHASH QOIDALARI.**

**3. O'TKAZMA YENGLI AYOLLAR PALTOSINING KONSTRUKSIYA CHIZMASINI QURISH.**

**4. Ayollar paltosi asos konstruktsiyasini modellash va yengni loyihalash**

5. Ayollar paltosining asosiy andozalarini tayyorlah.
6. Ayollar paltosining avra andozalarini tayyorlash.
7. Ayollar paltosi qotirma andozalarini tayyorlash.

**«Ayollar paltosi uchun model tanlash, o'lchov olish va asos konstruktsiya chizmasini chizish».**

Ayollar paltosi assortimentiga qishki, bahorgi, mavsumiy palto va yarim paltolar kiradi. Paltolar turli-tuman modelda to'g'ri, nim yopishgan va trapertsiyasimon siluetda bo'ladi. Tugma qadash usuli adip kengligiga ko'ra bir va ikki bortli paltolarga bo'linib, taqilmalar tugma va izmaga, knopkaga, molniyali lentaga qadaladi.

*Paltolar* - ko'p qavatli tikuv buyumlari bo'lib, ular ustki – asosiy gazlama, astarlik, qotirmalik (flizilin, dublirin) shuningdek, qishki paltolar isituvchi qatlamlardan iborat.

*Paltolar* - o'tqazma, reglan, old va ort bo'lak bilan yaxlit yengli qilib ham loyihalanadi. Yeng uchlariga qirqma, qaytarma manjetli, ochiq, yopiq qirqimli, mo'yna bilan ishlov berilgan va h.k. qilib ishlov beriladi.

Tanlangan modelga qarab - qoplama, qirqma qopqoqli, listochkali, ramkali cho'ntaklar ishlanadi va ular bezak va biriktiruvchi choklarda tikiladi.

*Palto astari* – etak bilan biriktirib tikiladi yoki astar etagiga ishlov berib ochiq qoldiriladi.

Yoqalar qaytarmali, tik, kapyushonli qilib ishlanadi. Ba'zi modeldagi paltolar yoqasiz bo'ladi.

Palto uzunligi moda yo'nalishiga qarab (uzun, kalta) tanlanadi.

Ayollar paltosiga; turli xil taxlamalar, burmalar, har xil razmer va konstruktsiyadagi releflar, bezak materiallar (charm, zamsh) bezak chok bilan, applikatsiya usulidan foydalanib, bezak beriladi.

Paltodagi furnituralar nafaqat funktsional, balki dekorativ vazifalarni bajaradi: ya'ni ularga turli razmer va shakldagi tugmalar, lentalar, knopkalar, ilmoqlar, izmalar, shuningdek, plastmassa, yog'och, charm, zamsh bezak elementlari kiradi.

Ayollar paltosining tashqi ko'rinishi, iste'molchi va ekspluatatsion talablari, tanlangan gazlamasiga ko'ra ilmiy jihatdan asoslangan kompleks, ko'p qavatli buyumlar hisoblanadi.

Tikuvchilik sanoatida ishlov berilish usuliga va ekspluatatsiya talablariga qarab, paltolik gazlamalar: yuza zichligi, chidamliligi, yirtilish kuchi, havo o'tkazuvchanligi, kirishmasligi, shuningdek yaxshi issiqlik saqlashi rangi, mustaqilligi, suv va yorug'lik ta'siriga chidamliligi kabi talablarga javob beradi.

Ommaviy ishlab chiqarishda ayollar paltosi uchun jun, kimyoviy tolalar qo'yilgan yarim jun, shakl saqlovchi, sun'iy trikotaj, polotno, ko'p qavatli qavilgan gazlamalar, tabiiy va sun'iy charm va zamshdan foydalaniladi. Shu bilan birga eng ommobop gazlamalarga kashemir, tvid, denim, movut, drap kiradi.

Astarlik uchun yuza qalinligi 100-140 g/m$^2$ viskoza tolali, yuza qalinligi 80-110 g/m$^2$ bo'lgan kapron tolali, kapron ipli trikotaj polotnolaridan foydalaniladi.

Isituvchi qatlam sifatida: 45-85% jun tolali, marli asosli 45% jun qo'shilgan vatindan foydalaniladi.

Palto umuman hech qachon modadan chiqmaydigan assortiment turidir, uning silueti, ranglari va gazlamalari o'zgarib turadi xalos, u barcha ayollar uchun kuzgi-qishki garderobining tarkibiy qismidir. Quyida turli siluet va uslub (stil) dagi ayollar paltosi modellaridan namunalar keltirilgan. (1-rasm).

Quyida misol tariqasida nim yopishgan siluetli ayollar paltosining loyihasi ishlab chiqilgan. (1 a-rasm).

## Tashqi ko'rinishiga tavsif berish

Romantik uslubdagi ayollar paltosi paltobop gazlamadan (kashemir, tvid, yupqa drap va boshqa) lardan tikilgan bo'lib, kundalik kiyish uchun mo'ljallangan.

Palto nim yopishgan siluetda bo'lib, shakli asosan vertikal roleflar hisobiga yechilgan. Bichimi reglan-koketka tipida, etagi kengaytirilgan, bir bortli tugma va izmada, yopiq taqilmali va yoqasi qaytarmadir.

Ort bo’lak o’rta chokli va yelka chokidan tushgan relef chokli, yelka qismida relef chokdan o’tgan reglan koketka qirqimi loyihalangan.

Old bo’lak ham yelkadan tushgan vertikal relef chokli bo’lib, reglan-koketka qirqimi relef chokka borib taqaladi. Yengi to’g’ri, ikki chokli: yuqori va pastki qirqimi. Old tomonda relef chokida yon cho’ntaklar loyihalangan. Yoqa chetlariga relef choklari bo’ylab, yeng uchiga, reglan qirqimiga bezak bahyaqator yuritilgan.

## AYOLLAR PALTOSINING KONSTRUKSIYASINI QURISH UCHUN RAZMYER O’LCHOVLARINI TANLASH VA ULARNI O’LCHASH QOIDALARI

O’lchamlar indeksi bosh harflar bilan belgilanadi:

R – bo’y;
O – aylana;
S – yarim aylana;
Sh – kenglik;
D – uzunlik;
V – balandlik;
S – markaz nuqtalari orasidagi masofa.

Uzunlik, balandlik va yelka kenglik to’la o’lchamda yoziladi. Bo’yin yarim aylanasi, ko’krak, bel, bo’ksa esa to’liq aylanada o’lchanib, yarim o’lcham holida yoziladi. Yarim o’lcham holida yana quyidagilar yoziladi, kenglik hamda markaz nuqtalari orasidagi masofa (ko’krak uch bezlari), chunki qurilayotgan andoza yarim qomatga chizilayotgani uchun.

O’lchov belgilarini aniq qomatdan o’lchash qoidalari 1,2-jadvallarda keltirilgan.

### Ayol qomatisining asosiy o’lchamlari

Barcha indeksli bosh harflar yozuv va chizmalarda kiyim konstruktsiyasining birgina SOTShL metodiga mos keladi.

1-jadval.

**O’lchov olish tartibi**

| № | Indeksli bosh harflar | Nomlanishi | O’lchanishi |
|---|---|---|---|
| **1.** | **2.** | **3.** | **4.** |
| i. | $S_{bo'yin}$ | Bo’yin yarim aylanasi. | Santimetrli lenta bo’yin asosi bo’ylab, orqa yettinchi bo’yin umurtqa usti bilan old bo’yin asosiga kelib tutashadi. |
| i. | $S_{kI}$ | 1-ko’krak yarim aylanasi. | Sanimetrli lenta ko’kraklarga yotqiziladi. Orqadan lenta gorizontal holatda ustki cheti bilan qo’ltiq chuqurligi orqa burchaklariga urinib o’tadi. Old tomonda lenta ko’krak bezlari ustidan o’tib o’ng tomonda biriktiriladi. Lentaning ustki chetiga belgi qo’yiladi va o’lchamning yarmi yoziladi. |
| i. | $S_{kII}$ | 2-ko’krak yarim aylanasi | Santimetrli lenta ko’kraklarga gorizontal tarzda yotqiziladi. Ustki cheti bilan qo’ltiq chuqurligining orqa burchaklariga urinib qo’ltiq tagidan og’ma ravishda o’tadi. Old tomonda santimetrli lenta ko’krak bezlarining uchidan o’tib, o’ng tomonda biriktiriladi. O’lchamning yarmi yoziladi. 1, 2-ko’krak aylanalari orqasidan santimetrli lentani siljitmay birin-ketin uzluksiz o’lchanadi. |



**1-rasm. Turli bichim va siluetdagi ayollar paltosining modellaridan namunalar**

1-jadvalning davomi

| | | | |
|---|---|---|---|
| v. | $S_{kIII}$ | 3 ko'krak yarim aylanasi | Santimetrli lenta tana atrofidan, ko'krak nuqtalari ustidan gorizontal bo'yicha o'tib, o'ng tomondan biriktiriladi. O'lchamning yarmi yoziladi. |
| v. | $S_{bel}$ | Bel yarim aylanasi. | Santimetrli lenta tana atrofidan, bel chizig'i sathidan o'tadi va o'lchamning yarmi yoziladi. |
| i. | $S_{bo'ksa}$ | Bo'ksa yarim aylanasi. | Santimetrli lenta dumba nuqtalaridan gorizontal tarzda o'tib, qorin chizig'ining egilgan plastina yordamida hisobga olinadi va o'lchamning yarmi yoziladi. |
| i. | $Sh_k$ | Ko'krak kengligi | Santimetrli lentani ko'krak bezlari ustiga gorizontal qo'yib, qo'ltiq chuqurligining old burchaklaridan ko'tarilgan vertikalgacha o'lchanadi va o'lchamning yarmi yoziladi. |
| i. | $Sh_{kII}$ | 2-ko'krak kengligi | Santimetrli lentani ko'krak ustiga gorizontal qo'yib, qo'ltiq chuqurligining old burchaklaridan ko'tarilgan vertikalgacha o'lchanadi va o'lchamning yarmi yoziladi. |
| x. | $D_{ort\ bel}$ | Orqaning bel chizig'igacha bo'lgan uzunlik. | Bel chizig'idan bo'yin nuqtasigacha ko'kraklar chizig'iga qo'yilgan yupqa plastina ustidan umurtqa pog'onasi bo'yicha o'lchanadi. |
| x. | $D_{tp2}$ | Old tomon bel chizig'igacha bo'lgan uzunlik. | Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi va ko'krak uchi nuqtasining usti orqali o'tib, o'rta sogittal chizig'iga parallel holda bel chizig'igacha o'lchanadi. |
| i. | $V_{kII}$<br><br>$S_k$ ($S_g$) | Ko'krak balandligi va ko'krak bezlarining oralig'i. | Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi nuqtasi bo'ylab ko'krak uchi nuqtasigacha o'lchanadi. Bu o'lcham ikki ko'krak uchi oralig'i masofasidir. |
| i. | $V_{old.o'miz}$ | Old o'mizining balandligi | Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi nuqtasi usti bo'ylab birinchi ko'krak aylanasi chizig'igacha o'lchanadi. |
| i. | $V_{ort.o'miz}$ | Orqa o'mizining balandligi | Ko'kraklar chizig'ini hisobga olgan holda bo'yin nuqtasidan birinchi va ikkinchi ko'krak aylanasining chizig'igacha bo'lgan masofa. |
| v. | $V_{elka\ qiya}$ | Yelkaning qiyalama balandligi | Bu masofa bel chizig'ining umurtqa pog'onasi bilan kesishish nuqtasidan yelkaning chetki nuqtasigacha o'lchanadi, santimetrli lenta tarang tortilib, ko'kraklardan diogonaliga o'tadi. |
| v. | $Sh_{orqa}$ | Orqa kengligi | Ko'kraklar ustidan gorizontal qo'ltiq chuqurligining burchaklaridan boshlab o'lchanadi. Bu o'lchamni kattalashtirib bo'lmaydi, aks holda yeng o'mizi tor bo'lib qoladi. |
| i. | $Sh_{elka}$ | Yelka qiyaligining kengligi | Bo'yin asosi nuqtasidan yelkaning chetki nuqtasigacha o'lchanadi. Bu o'lchamni modaga qarab 1,0-1,5 sm ga kichraytirish yoki kattalashtirish mumkin. |
| i. | $O_{elka}$ | Yelka aylanasi | Yelka o'qiga perpendikulyar bo'yicha o'lchanadi. Lentaning ustki cheti qo'ltiq chuqurligini orqa burchaklariga uruntirib, qo'l tashqi sathda biriktiriladi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| i. | $O_{bilak}$ | Bilak aylanasi | Bilak suyagini hisobga olgan holda o’lchanadi. |
| k. | $D_{eng}$ | Yeng uzunligi | Erkin holda tushirilgan qo’lda, yelka cheti nuqtasidan istalgan uzunlikkacha o’lchanadi. |
| k. | $D_{buyum}$ | Buyum uzunligi | 7-umrtqa nuqtasidan bel chizig’igacha va undan istalgan uzunlikkacha o’lchanadi. |

2-jadval.

**Qo’shimcha va namunaviy o’lchamlar jadvali**

| O’lcham | **42** | **44** | **46** | **48** | **50** | **52** | **54** | **56** | **58** | **60** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $S_{bo’yin}$ | 17,3 | 17,7 | 18,1 | 18,5 | 18,9 | 19,3 | 19,6 | 20 | 20,4 | 20,8 |
| $S_{kI}$ | 41,4 | 42,9 | 44,4 | 45,9 | 47,4 | 48,9 | 50,5 | 51,9 | 53,3 | 54,7 |
| $S_{kII}$ | 44.4 | 46.4 | 48.4 | 50.4 | 52.4 | 54.4 | 56.4 | 58.4 | 60.4 | 62.4 |
| $S_{kIII}$ | 42 | 44 | 46 | 48 | 50 | 52 | 54 | 56 | 58 | 60 |
| $S_{bel}$ | 31,7 | 33,8 | 35,9 | 38 | 40,1 | 42,2 | 45,3 | 47,7 | 50,1 | 52,5 |
| $S_{bo’ksa}$ | 46 | 48 | 50 | 52 | 54 | 56 | 60 | 62 | 64 | 66 |
| $Sh_k$ | 16,1 | 16,5 | 16,9 | 17,3 | 17,7 | 18,1 | 18,6 | 19 | 19,4 | 19,8 |
| $D_{ort\ bel}$ | 42,6 | 42,7 | 42,8 | 42,9 | 43 | 43,1 | 43,2 | 43,3 | 43,4 | 43,5 |
| $D_{old\ bel}$ | 42,6 | 43,2 | 43,8 | 44,4 | 45 | 45,6 | 45,9 | 46,6 | 47,3 | 48 |
| $V_k$ | 24,6 | 25,4 | 26,2 | 27 | 27,8 | 28,6 | 29,6 | 30,6 | 31,6 | 32,6 |
| $V_{ort.o’miz}$ | 20,6 | 20,9 | 21,2 | 21,5 | 21,8 | 22,1 | 22,5 | 22,8 | 23,1 | 23,4 |
| $V_{elka\ qiya}$ | 42,3 | 42,6 | 42,9 | 43,2 | 43,5 | 43,8 | 44 | 44,3 | 44,6 | 44,9 |
| $Sh_{orqa}$ | 16,8 | 17,3 | 17,8 | 18,3 | 18,8 | 19,3 | 19,7 | 20,2 | 20,7 | 21,2 |
| $Sh_{elka}$ | 13 | 13,1 | 13,2 | 13,3 | 13,4 | 13,5 | 13,5 | 13,6 | 13,7 | 13,8 |
| $O_{elka}$ | 26,1 | 27,5 | 28,9 | 30,3 | 31,7 | 33,1 | 34,7 | 35,8 | 36,9 | 38 |
| $O_{bilak}$ | 15,6 | 15,9 | 16,2 | 16,5 | 16,8 | 17,1 | 17,5 | 17,8 | 18,1 | 18,4 |
| $D_{eng}$ | 55 | 55,2 | 55,4 | 55,6 | 55,8 | 56 | 56,3 | 56,4 | 56,5 | 56,6 |

3-jadval.

**Beldagi orqa o’rta chiziqni vertikal olib o’tish kattaligi ($TT_1$)**

| Siluet | Kattalik $TT_1$, sm da | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Bel vitochkali | Bel vitochkasiz | Bel vitochkali | Bel vitochkasiz |
| To’g’ri | - | 1 | 1 | 1,5 |
| Sal yopishgan | 1 | 1,5 | 1,5 | 2 |
| Yopishgan | 1,5 | - | 2 | - |

**Eslatma:** orqa o’rta chiziqqa vertikal $TT_1$ o’ng tomonga olib o’tiladi, chunki orqaning beldan past qismi chiroyli yopishishi uchun.

4-jadval.

**Isitib turuvchi taglik uchun va qo’shimcha ko’krak chizig’i bo’yicha o’lcham $P_k$, $PSh_{ort}$, $PSh_{old}$**

| Isitib turuvchi taglik ko’rinishi | Qalinligi sm da | Qo’shimcha qo’shish kattaligi sm da | | |
|---|---|---|---|---|
| | | $P_k$ | $PSh_{orqa}$ | $PSh_{old}$ |
| Vatin, sintepon 1-qavatda | 0,3-0,4 | 0,9-1,3 | 0,15-0,25 | 0,15-0,25 |
| Vatin, sintepon 2-qavatda yoki qalin sintepon 1 qavatda | 0,6-0,8 | 1,9-2,6 | 0,35-0,5 | 0,35-0,5 |
| Qaviqlangan paxta, mo’yna | 1,0 | 3,2 | 0,6 | 0,6 |

5-jadval.

**$S_g$3, St, Sb ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlarining o'lchamlari uchun qo'shimchalar**

| Buyum | Qo'shimcha kattaligi, sm da | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | O'ta yopishgan kenglik | | | Yopishgan kenglik | | | Nim yopishgan | | | Bemalollik | | | O'ta bemalollik | | |
| | $P_{ko'k}$ | $P_{bel}$ | $P_{bo'k}$ | $P_{ko'k}$ | $P_{bel}$ | $P_{bo'k}$ | $P_{ko'k}$ | $P_{bel}$ | $P_{bo'k}$ | $P_{ko'k}$ | $P_{bel}$ | $P_{bo'k}$ | $P_{ko'k}$ | $P_{bel}$ | $P_{bo'k}$ |
| Palto d/s | 6-7 | 2-3 | 2-3 | 7-8 | 4-5 | 3-4 | 8-9 | 6-8 | 4-5 | 9-11 | - | - | 11-13 | - | - |

**Izoh:** Birinchi raqam yupqa gazlamalar uchun, ikkinchisi qalin gazlamalar uchun qo'shimcha qiymatini bildiradi.

6-jadval.

**Ort va old bo'lak bo'yicha $Sh_{ort}$, $Sh_{old}$, $Sh_{kII}$ o'lchamlariga to'kislik uchun qo'shimcha**

| Buyum | Qo'shimcha kattaligi, sm da | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | O'ta yopishgan | | Tanaga yopishgan | | Nim Yopishgan | | Bemalollik | | O'ta bemalollik | |
| | $PSh_{ort}$ | $PSh_{old}$ | $PSh_{ort}$ | $PSh_{old}$ | $PSh_{ort}$ | $PSh_{old}$ | $PSh_{ort}$ | $PSh_{old}$ | $PSh_{ort}$ | $PSh_{old}$ |
| Palto d/s | 1-1,2 | 0 | 1,2-1,4 | 0-0,5 | 1,4-1,8 | 0,8-1,2 | 1,8-2,4 | 1,2-1,8 | 2,4-3 | 1,8-2,4 |

7-jadval.

**Ort va old bo'lak uzunligi, yeng o'mizi chuqurligi, yoqa o'mizi chuqurligi va kengligi o'lchamlariga to'kislik uchun qo'shimchalar**

| Qo'shimcha nomi | Shartli belgisi | Qo'shimcha berilayotgan o'lcham | Qo'shimcha kattaligi sm da | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ko'ylak | Jaket | Palto |
| Ort bo'lak belgacha bo'lgan uzunlikka | $PD_{ort}$ | $D_{ort.bel}$ | 0,5 | 0,7-1 | 1 |
| Old bo'lak belgacha bo'lgan uzunlikka | $PD_{old\ bel}$ | $D_{old.bel}$ | 0,5 | 0,7-1 | 1 |
| Yelka qiyamasi balandligiga | $PV_{elka\ qiya}$ | $V_{elka\ qiya}$ | 0,5 | 0,7-1 | 1 |
| Yeng o'mizi to'kisligiga | $PS_{o'miz}$ | $S_{o'miz}$ | 1,5-2,5 | 2,5-3 | 2,5-3,5 |
| Old bo'lak yoqa o'mii kengligiga | $PV_{ort.yoqa.o'miz}$ | $S_{bo'yin}$ | 0,5-1 | 1 | 1-1,5 |
| Ort bo'lak yoqa o'mizi chuqurligiga | $P_{vgs}$ | $S_{sh}$ | - | - | 0,2-0,4 |

8-jadval.

**Yeng konstruktsiyasini qurishda $O_{elka}$ (elka aylanasi) o'lchamiga to'kislik uchun qo'shimcha**

| Yeng tavsifi | $PO_{elka}$ qo'shimcha qiymati, sm da |
|---|---|
| | Palto |
| Juda yopishgan | 5-7 |
| Tor | 7-9 |
| Nim yopishgan | 9,5-12 |
| Kengaygan | 12-14 |
| Juda keng | 14,5-17 |

**Eslatma:** to'la qo'lli qomatlar uchun $PO_{elka}$-qo'shimchasi kamroq olinadi.

9-jadval.

**Ort bo'lak o'rta chizig'ining bel chizig'i sohasida ($TT_1$) vertikaldan og'ish kattaligi**

| Siluet | $TT_1$ qiymati, sm da | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Ort bo'lak o'rta chokda | | Yaxlit ort bo'lak | |
| | Bel chizig'ida vitochkali | Bel chizig'ida vitochkasiz | Bel chizig'ida vitochkali | Bel chizig'ida vitochkasiz |
| To'g'ri | - | 1 | - | 1,5 |
| Nim yopishgan | 1 | 1,5 | 1,5 | 2 |
| Yopishgan | 1,5 | - | 2 | - |

**Eslatma:** ort bo'lak bel va etak qismida yaxshi turishi uchun $TT_1$ og'ish o'rta chiziqdan o'ng tomonga chiziladi.

10-jadval.

**Ko'krak chizig'ida PK , $PSh_{orqa}$ , $PSh_{old}$ o'lchamlari bo'yicha isituvchi qatlama qo'shimcha**

| Isituvchi qatlam turi | Qalinligi sm da | Qo'shimcha kattaligi, sm da | | |
|---|---|---|---|---|
| | | $P_k$ | $PSh_{orqa}$ | $PSh_{old}$ |
| Vatin, sintepon 1 qavat | 0,3-0,4 | 0,9-1,3 | 0,15-0,25 | 0,15-0,25 |
| Satin, sintepon 2 qavat yoki qalin sintepon 1 qavat | 0,6-0,8 | 1,9-2,6 | 0,35-0,5 | 0,35-0,5 |
| Qavilgan paxta, mo'yna | 1,0 | 3,2 | 0,1 | 0,6 |

11-jadval.

**O'tkazma yengli buyumlarda ($aa_2$ kattalik) yeng o'mizining minimal kengligi, II-to'lalik guruhi, bo'y – 164 sm.**

| **Buyum nomi** | **Razmer bo'yicha ($aa_2$) yeng o'mizining minimal kengligi, sm da** | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **44** | **46** | **48** | **50** | **52** | **54** | **56** | **58** | **60** | **62** | **64** | **66** | **68** |
| Palto (mavsumiy) | 12,9 | 13,5 | 14,1 | 14,7 | 15,3 | 15,6 | 16,1 | 16,6 | 17,1 | 17,3 | 17,8 | 18,3 | 18,8 |
| Qishki isituvchi qatlamli (qalinligi 0,3-0,4 sm) palto | 13,5<br>13,7 | 14,1<br>14,3 | 14,7<br>14,9 | 15,3<br>15,5 | 15,9<br>16,1 | 16,2<br>16,4 | 16,7<br>16,9 | 17,2<br>17,4 | 17,7<br>17,9 | 17,9<br>18,1 | 18,4<br>18,6 | 18,9<br>19,1 | 19,4<br>19,6 |
| Isituvchi qatlamli, mavsumiy palto 0,6-0,8 sm | 14,1<br>14,5 | 14,7<br>15,1 | 15,3<br>15,7 | 15,9<br>16,3 | 16,5<br>16,9 | 16,8<br>17,2 | 17,3<br>17,7 | 17,8<br>18,4 | 18,3<br>18,7 | 18,5<br>18,9 | 19<br>19,4 | 19,5<br>19,9 | 20<br>20,4 |

## O'TKAZMA YENGLI AYOLLAR PALTOSINING KONSTRUKSIYA CHIZMASINI QURISH

Standart namunaviy qomatli ayollar uchun: 96-razmerli, 164-bo'y, nim yopishgan siluetli palto konstruktsiya chizmasini quramiz.

Agar qomat o'lchamlari namunaviy o'lchamlardan farq qilsa, u holda o'lchamlar individual qomatdan o'lchanadi. O'lchov olish qoidlari yuqorida keltirilgan.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $S_{bo'yin}$ | 18,5 | $PSh_{yoqa}$ | 1,5 | $V_kII$ | 27 | | |
| $S_{kI}$ | 45,9 | $PV_{ort.yoqa.o'miz}$ | 0,4 | $V_{orqa}II$ | 21,5 | $P_{orqa\ o'miz}$ | 3,5 |
| $S_{kII}$ | 50,4 | | | $V_{elka\ qiya2}$ | 43,2 | $PV_{elka\ qiya}$ | 1 |
| $S_{kIII}$ | 48 | | | $Sh_{orqa}$ | 18,3 | $PSh_{orqa}$ | 1,8 |
| $S_{bel}$ | 38 | $P_k$ | 12 | $Sh_{elka}$ | 13,3 | | |
| $S_{bo'ksa}$ | 52 | $P_{bel}$ | 8 | $O_{elka}$ | 30,3 | $PO_{elka}$ | 12 |
| $Sh_k$ | 17,3 | $P_{bo'ksa}$ | 5 | $O_{bilak}$ | 16,5 | | |
| $D_{ort\ belII}$ | 42,9 | $PSh_{old}$ | 1,2 | $D_{eng}$ | 55,6 | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $D_{old\ belII}$ | 44,4 | $PD_{orqa\ bel}$<br>$PD_{old\ bel}$ | 1<br>1 | $TT_1$ | 1,5 | $aa_2$ | 14,1 |

Hisob jadvalini soddalashtirish maqsadida quyidagi shartli belgilarni kiritamiz.

| Belgi | Ma'nosi |
|---|---|
| ↓ | Pastga |
| ↑ | Yuqoriga |
| → | O'ngga |
| ← | Chapga |
| (·) | Nuqta |
| ⊥ | Perpendikulyar |

12-jadval.

**NAMUNAVIY QOMATDAGI AYOLLAR PALTOSINING CHIZMASINI QURISH**

| № | Shartli belgisi | Ta'rif | Hisob | Qiymat sm da |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. |
| **Bazis to'rini qurish (1-rasm)** | | | | |
| 1. | $A_0$ | Ayollar paltosining konstruktsiyasini qurish uchun dastlab ort o'rta chizig'ini ifodolovchi vertikal, bo'yin o'mizini eng yuqori nuqtasini ifodolovchi gorizontal chiziq o'tkaziladi. Ular $A_0$ nuqtada kesishadi.<br>Yuqoridan $A_0$ nuqtaga to'g'ri burchak qo'yiladi. | | |
| 2. | $A_0U$ | *Kuraklar sohasi:*<br>$A_0$ (·) dan ↓ U (·) belgilanadi. | $A_0U = 0,4\ D_{orqa\ bel}\ 2 = 0,4$ x 42,9 = 17,2 | 17,2 |
| 3. | $A_0G$ | *Yeng o'mizi chuqurligi* (ko'krak chizig'i) $A_0$ (·) dan ↓ chiziq chiziladi, G(·) bilan belgilab, undan butun varaq bo'ylab gorizontal chiziq chiziladi. | $A_0G = V_{eng.o'miz}2 + PD_{eng.o'miz} + 0,5\ P_{orqa\ bel} = 21,5 + 3,5 + 0,5 = 25,5$ | 25,5 |
| **Eslatma:** 50-razmerdan katta qomatlar uchun yeng o'mizi 0,5-1,0 sm ga chuqurlashtiriladi | | | | |
| 4. | $A_0T$ | *Bel chizig'i o'rni*: $A_o$ (·) dan ↓ chiziladi. T (·) bilan belgilab, undan gorizontal chiziq o'tkaziladi. | $A_0T = D_{orqa\ bel}2 + PD_{orqa\ bel} = 42,9+1 = 43,9$ sm | 43,9 |
| | TB | *Bo'ksa chizig'i o'rni:* T(·) dan ↓ chiziladi. B(·) bilan belgilanadi va undan gorizontal chiziq o'tkaziladi. | $TB = D_{orqa\ bel}\ 2/2 – 2 = 19,5$ sm | 19,5 |
| 5. | $TT_1$ | *Ort o'rta chizig'ini bel chizig'iga o'tkazish:*<br>T(·) dan → chiziladi. $A_0$ va $T_1$ nuqtalarni birlashtirib, etak chiziqqacha davom ettiriladi. | $TT_1 = 1,5$ sm | 1,5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 6. | $A_0a_1$ | *Ko’krak chizig’i bo’yicha kiyim kengligi* (bazis to’ri kengligi) $A_0$ (·) dan → chiziladi, $a_1$ (·) pastga vertikal chiziladi va gorizontal chiziq bilan kesishgan (·) da $G_3$, $T_3$, $B_3$ (·) qo’yiladi. | $A_0a_1 = S_k3 + P_k + G_k = 48 + 12 + 0,5 = 60,5$ sm<br>$A_aa_1 = S_k3 + P_k$ (agar $TT_1 = 0$) | 60,5 |
| 7. | $A_0a$ | *Ort bo’lak kengligi:*<br>$A_0$ (·) dan → chiziladi. | $A_0a = Sh_{orqa} + PSh_{orqa} = 18,3 + 1,8 = 20,1$ sm | 20,1 |
| 8. | $a_1a_2$ | *Old bo’lak kengligi:*<br>$a_1$(·) dan ← chiziladi. | $a_1 a_2 = Sh_k + PSh_{old} + (S_k2 – S_k1) = 17,3 + 1,2 + 4,5 = 23$ sm | 23 |

8-jadvalning davomi.

| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. |
|---|---|---|---|---|
| 9. | $aa_2$ | *Yeng o’mizi kengligi:*<br>Yeng o’mizi kengligini konstruktsiyadan o’lchash mumkin. O’lchangan qiymatni 7-jadval bilan solishtirib ko’riladi va agar undan kichik bo’lsa, qiymatni jadvaldagiga mos kelguncha kengaytiriladi.<br>a(·) dan ko’krak chizig’igacha ↓ tushiriladi, kesishgan (·) $G_1$ (·) bilan belgilanadi. $a_2$ (·) dan ko’krak chizig’iga ↓ chiziq tushiriladi va kesishish (·) $G_4$ bilan belgilanadi. | $aa_2 = A_0a_1 – (A_0a + a_1a_2) = 60,5 – (20,1 + 23) = 17,4$ sm | 17,4 |
| 10. | $G_1G_2$ | *Yeng o’mizining o’rtasi* $G_2$ (·) dan etak chizig’iga ↓ vertikal tushiriladi. | $G_1G_2 = G_1G_4 : 2 = 8,7$ sm | 8,7 |
| **Ort bo’lak chizmasini qurish (3–rasm)** | | | | |
| 11. | $A_0A_2$ | Ort bo’lak yoqa o’mizi kengligi.<br>$A_0$ (·) dan → chiziladi va $A_2$ (·) bilan belgilanadi. | $A_0 A_2 = 1/3\ S_{bo’yin} + P_{yoqa\ o’miz} + (0,5 . . . 1) = 6,2 + 1,5 + 0,5 = 8,2$ sm.<br>**Eslatma:** 44-52 razmerlar uchun 0,5 sm, 54-68 razmerlar uchun 1 sm qo’yiladi | 8,2 |
| 12. | $A_0A$ | *Ort bo’lak yoqa o’mizi chuqurligi.*<br>$A_0$ (·) dan pastga A (·) bilan belgilanadi. | $A_0A\ \ 1/3\ A_0A_2 + PV_{yoqa\ o’miz} = 2,7 + 0,4 = 3,1$ sm | 3,1 |
| 13. | $AN_1$ | *Kiyim uzunligi:* A (·) dan ↓ chiziladi. | $AN_1 = D_{buyum} + PD_{orqa.bel} = 110+6 = 116,0$ sm<br>**Eslatma:** amaliyotda yubka uzunligi bel chizig’idan boshlab quriladi | 116,0 |
| | $A_2P_1$<br><br>$T_1P_1$ | *Yelkaning chetki nuqtasi:*<br>$A_2$ (·) dan, $A_2P_1$ ga teng yoy chiziladi. $T_1$ (·) dan birinchi yoyga teng yoy o’tkaziladi va kesishish (·) da $P_1$ (·) belgilanadi. $A_2$ va $P_1$ (·) lar birlashtiriladi. | $A_2P_1 = Sh_{elka} + 2,5$ sm (vitochka) + 0,5 (posadka) = 13,3 + 2,5 + 0,5 = 16,3 sm.<br>$T_1P_1 = V_{elka\ qiya}2 + PV_{elka\ qiya}$ + (elka yostiqchasi qalinligi) = 43,2 + 1+1 = 45,2 sm | 16,3<br><br>45,2 |
| **Eslatma:**<br>1) Agar $TT_1$=0 bo’lsa, unda ikkinchi yoyni $V_{elka\ qiya}2+PV_{elka\ qiya}$+(elka yostiqchasi) ni T (·) dan o’tkaziladi.<br>2) Agar model bo’yicha yelka yostiqchasi 1,5-3 sm qalinlikda bo’lsa, unda ort bo’lak yelka vitochkasi qurilmaydi, $A_2P_1$ yoy $Sh_{elka}$ + 0,5 (posadka) ga teng, ya’ni $A_2P_1= Sh_{elka}+0,5$ | | | | |
| 14. | $A_2A_{21}$ | *Yelka vitochkasini qurish:*<br>$A_2$ (·) dan o’ngga, yelka chizig’i bo’ylab | $A_2A_{21} = 4,5$ sm | 4,5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 4,5 sm chiziladi va 2,5 sm vitochka kengligiga (9-jadval bo'yicha), 7-10 sm vitochka uzunligiga qo'yiladi. Vitochka uchlarini birlashtirib, yelka kengligi yopiq vitochka holida yetkaziladi (oxirigacha chizib). | $A_{21}A_{23} = A_{22}A_{23}$ | |

8-jadvalning davomi.

| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. |
|---|---|---|---|---|
| **Eslatma: ye**lka vitochkasi yelka chizig'ining o'rtasida va model bo'yicha yoqa o'mizida ham joylashishi mumkin, ammo har qanday holatda ham vitochka uchi kuraklarning eng turtgan nuqtasiga yo'naltirilishi shart. | | | | |
| Agar bukchaygan qomat bo'lsa, vitochkani yelka o'rtasiga yaqin qilib quriladi. Agar yelka tor va ort bo'lak keng bo'lsa, unda 2 ta vitochka quriladi: biri yoqa o'mizida, ikkinchisi yelka chizig'ida. | | | | |
| 15. | $G_1P_3$ | *Yeng o'mizida nazorat (·)*<br>a) $P_1$ nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq chiziladi va yeng o'mizining vertikal chizig'i bilan kesishish (·) $P_2$ bilan belgilanadi.<br>$G_1$(·) dan ↑ $P_3$ (·) belgilanadi.<br>b) $G_1$ (·) dan ↑, $P_3$ (·) qo'yiladi.<br>v) $P_3P_{31}$ ort bo'lakning o'rta chizig'ining $P_3$ (·) da vertikaldan og'ishiga teng. | $G_1P_3 = 1 / 3\ G_1P_2 + 2$ sm | 2 |
| 16. | $G_1 1$ | *Yeng o'mizi bessektrisasi* $G_1$ burchakdan bissektrisa o'tkaziladi. Ort bo'lak yeng o'mizini tekis chiziq bilan $P_1$, $P_{31}$ ($P_3$), 1, $G_2$ (·) lardan o'tkaziladi. | $G_1 1 = 0{,}2\ G_1G_4 + 0{,}5 =$<br>$0{,}2 \times 17{,}4 + 0{,}5 = 3{,}98$ sm | 3,98 |
| **Old bo'lak chizmasini qurish (3-rasm)** | | | | |
| 17. | $G_3G_6$ | *Ko'krak uchi:*<br>$G_6$ (·) dan ↓ o'tkazib, bel chizig'idan $T_{60}$ (·) belgilanadi. | $G_3G_6 = 1 / 2\ G_3G_4 – 0{,}5$ sm (mavsumbop palto uchun)<br>$G_3G_6 = S_k + 0{,}5$ sm (agar $S_k$ qo'shimcha o'lchov bo'yicha) | |
| 18. | $T_{60}T_6$ | *Bel chizig'idan pastga tushish:* | $T_{60}T_6 = 0$<br>Bel chizig'idan qirqilmagan buyumlar uchun. | 0 |
| 19. | $T_3A_3$ | *Yoqa o'mizining balandligi* (kiyim balansi)<br>$T_3$ (·) dan ↑ | $T_3A_3 = D_{old\ bel}\ 2 + PD_{old.bel} + (1{,}5\text{-}2{,}5)$ – mavsumbop paltolar uchun.<br>$T_3A_3 = D_{old.bel} + PD_{old\ bel} + 2{,}5$ – «shol» yoqali qishki paltolar uchun | 2,5 |
| **Izoh:** Qavs ichidagi raqamlar – kiyim uzunligiga berilgan qo'shimchalar, ya'ni bortga namlab, isitib ishlov berish va kirishtirish uchun qo'yiladi.<br>**Eslatma** – bel chizig'i qirqilgan buyumlar uchun hisob $T_8$ (·) dan boshlab qo'yiladi. | | | | |
| 20. | $A_3A_{31}$ | *Old o'tar chizig'i:*<br>$A_3$ (·) dan ← o'tkaziladi. $A_{31}$ va $G_3$ (·) larni birlashtiradi.<br>$A_{31}$ (·) dan → 90° burchak ostida $A_{31}G_3$ ga chiziq o'tkaziladi. | $A_3\ A_{31} = 0{,}5$ sm<br>(namunaviy qomatlar uchun)<br>$A_3A_{31} = 1 – 1{,}5$ sm.<br>(aniq qomatlar uchun)<br>$A_3A_{31} = 0$<br>(bukchaygan) | 0,5 |
| 21. | $A_{31}A_4$ | *Old bo'lak yoqa o'mizi kengligi*: $A_{31}$ (·) dan ← chiziladi. | $A_{31}A_4 = 1 / 3\ S_{bo'yin} + PSh_{bo'yin} =$<br>$18{,}5 : 3 + 1{,}5 = 7{,}7$ sm | 7,7 |
| 22. | $A_{31}A_5$ | *Bo'yin o'mizi chuqurligi* $A_{31}$ (·) dan ↓ chiziladi. Yoqa o'mizi chizig'ini $A_{31}A_5$ (·) dan radius bilan, $A_4$ (·) va $A_5$ bir xil uzoqlikda o'tkaziladi (katta yoy qoidasi). | $A_{31}A_5 = A_{31}A_4 + 1$ sm =<br>$7{,}7 + 1 = 8{,}7$ sm. | 8,7 |

| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. |
|---|---|---|---|---|
| 23. | $A_4G_7$ | *Ko'krak balandligi* $A_4$ (·) dan $G_6T_6$ chizig'iga belgi kiritib $G_7$ (·) belgilanadi. $G_3$ (·) dan $A_4$ (·) orqali chap tomonga yoy chiziladi. | $A_4G_7 = V_g2 = 27$ sm | 27 |
| 24. | $A_4A_9$ | *Ko'krak vitochkasining qiymati* $A_4$ (·) dan ← yoy bo'yicha $A_9$ va $G_7$ (·) lar birlashtiriladi. | $A_4A_9 = 2\ (S_{k2} - S_{k1}) + 2 = 2\ (50{,}4- 45{,}9) + 2 = 10{,}6$ sm | 10,6 |
| **Eslatma:** Yelka yostiqchasi bo'lgan kiyimlarda ko'krak vitochkasi ko'krakka yassiroq shakl berish va yeng o'mizida vertikal taxlamalar hosil qilish uchun 2 sm ga qisqaradi: Yeng o'mizi yuqori qismi yanada vertikal va taxlama chiroyli yotishi uchun vitochkani yarim qiymatgacha yopish mumkin (albatta, yelka yostiqchasi baland bo'lishi shart) | | | | |
| 25. | $G_4P_4$ | *Old bo'lak yeng o'mizi chuqurligi.* $G_4$ (·) dan ↑ | $G_4P_4 = G_1P_2 - 1$ sm | 1 |
| 26. | $G_4P_6$ | *Yeng o'mizining nazorat (·) si.* $G_4$(·) dan ↑. | $G_4P_6 = 1 / 3\ G_4P_4$ | |
| 27. | $P_6P_{61}$ | Qo'shimcha nuqta: $P_v$ (·) dan → | $P_6P_{61} = 0{,}6$ barcha razmerlar uchun | 0,6 |
| 28. | 1)$A_9P_5$<br>2) $P_{61}P_5$ | *Yeng o'mizining chetki yelka (·)*<br>$A_9$ (·) dan birinchi yoy o'tkaziladi. $P_{61}$ (·) dan $P_4$ orqali ikkinchi yoy o'tkaziladi va ularning kesishish (·) $P_5$ bilan belgilanadi. $A_9$ va $P_5$ (·) lar birlashtiriladi. | 1) $A_9P_5 = Sh_{elka} = 13{,}3$<br>2) $P_{61}P_5 = P_{61}P_4$ | 13,3 |
| **Eslatma:** Ikkinchi yoy ($P_{61}$ $P_4$ o'rniga) $G_7$ nuqtadan qo'shimcha $V_{ppk}2$ o'lchamini qo'yish mumkin. $G_7\ P_5 = V_{ppk}\ 2 + 1 / 2\ P_{dtp}$ | | | | |
| 29. | $P_53$ | Yordamchi (·) $P_5$ va $P_6$ nuqtalarni birlashtirib, o'rtada 3 nuqta belgilanadi. $P_5P_6$ ga ⊥ | $P_53 = ½\ P_5P_6\ 3 - 4 =$<br>$= 0{,}3 - 0{,}8$ sm $P_5P_6$ ⊥ | |
| 30. | $G_42$ | $G_4$ burchak bissektrisasidan bissektrisasi | $G_42 = G_1\ 1 -0{,}5$ | 0,5 |
| 31. | $A_9A'_9$ | *Ko'krak vitochkasini yelka chizig'iga o'tkazish.*<br>$G_7$ nuqtadan $G_7$ $A'_9$ radius bo'yicha o'ngga yoy o'tkaziladi va bu yoyda ko'krak vitochkasi belgilanadi, shunday qilib $A'_4$ nuqtasi hosil bo'ladi va uni $A_4$ nuqta bilan tutashtiriladi. | $A_9A'_9 = 5\text{-}6$ sm | 5 –6 |
| 32. | $T_3N_{31}$<br>$T_8N_{31}$ | *Kiyim etagini chizish:*<br>$T_8$(·) yoki $T_3$ (·) sidan ↓. Ort bo'lak etak chizig'ini $A_0T_1N_1$ chiziqqa 90°< qilib o'tkazish. | $T_3N_{31} = T_1N_1 + 1$ sm adipga ishlov berish uchun<br>$T_8N_{31} = T_1N_1 + 1$ | |
| 33. | | Yon qirqim yeng o'mizining o'rtasida $G_2$ nuqtada joylashishi mumkin. Shuningdek $G_2$ nuqtadan chap tomonga ixtiyoriy masofaga, bel chizig'ining yangi o'rni $G_1$ nuqtagacha, (faqatgina o'tqazma yengli kiyimlarda) siljishi mumkin.<br>Reglan, kimano bichimidagi buyumlarda yon qirqim yeng o'mizining o'rtasida $G_2$ nuqtadan o'tadi. Ushbu misolda yon qirqim $G_2$ nuqtadan o'tadi. Yon qirqim $G_2$ nuqtadan etak qirqimgacha vertikal tushiriladi. Bo'ksa chizig'ida kesishish nuqtasi $B_2$ bilan belgilanadi. | | |

8-jadvalning davomi.

| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. |
|---|---|---|---|---|
| 34. | | *Bel chizig'ining yangi holati. Kiyimning bo'ksa chizig'i bo'yicha kengligini tekshirish.* $T_1$ nuqtadan ort bo'lak o'rta chizig'iga ($A_0T_1N_1$) perpendikulyar qilib, bel chizig'i o'tkaziladi. Yon qirqim bilan kesishish nuqtasi $T_2$ bilan belgilanadi. Old bo'lak bel chizig'i $T_3T_{60}$ nuqtalaridan o'tib $T_2$ nuqtagacha yetkaziladi. Old va ort bo'lakda $T_2$ nuqtada nazorat kertiklari belgilanadi. | | |
| 35. | | *Buyum kengligini bo'ksa chizig'ida tekshirish.* Bel chizig'ida, $B_1$ nuqtadan $B_3$ nuqtagacha bo'lgan masofani o'lchab, ($S_{bel}$ + $P_{bel}$) o'lcham bilan solishtirib ko'riladi. Agar chizma tor bo'lsa, u holda $B_2$ nuqtada bo'ksa bo'yicha old va ort bo'lakda bir xil kengaytirish beriladi. | | |
| 36. | | *Vitochkalar yig'indisini hisoblash.* Vitochkalar yig'indisi chizmani bel chizig'ida $T_1$ nuqtadan $T_2$ gacha va $T_2$ nuqtadan $T_3$ gacha o'lchab ko'riladi. Olingan qiymatdan ($S_t$ + $P_t$) o'lcham ayriladi, qolgan qiymat vitochkalar yig'indisi hisoblanadi. | $(S_k3 + P_k + G_k) – (S_{bel} + P_{bel})$ – $TT_1$= 13 sm | 13 |
| 37. | | Bitta vitochkaning kengligi, vitochkalar yig'indisining vitochkalar soniga bo'linganiga teng. | Agar 4 ta vitochka bo'lsa: Vitochka qiymati = = 13 : 4 = 3,2 sm | |
| 38. | | *Ort bo'lakda vitochkaning joylashishi.* $GG_1$ masofa ikkiga bo'linadi va shu nuqtadan ort bo'lak ($A_0$ $T_1N_1$) vitochka markazi chizig'ini ort bo'lak o'rta chizig'iga ($A_oT_1N_1$) parallel qilib, bo'ksa chizig'igacha va yuqorida ko'raklar sohasigacha o'tkaziladi. Bel chizig'ining vitochka kengligi 3,2 sm. Vitochka uzunligi bo'ksa chizig'iga 4-6 sm yetkazmay, ko'kraklar sohasiga 3-5 sm yetkazmay belgilanadi. | | |

8-jadvalning davomi.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| 39. | | *Old bo'lakda vitochkaning joylashishi.* Old vitochka o'qi ko'krak markazidan o'tadi. Uning kengligi bel chizig'ida 3,2 sm. Vitochkaning yuqori nuqtasi $G_7$ nuqtaga 3-4 sm yetmaydi, vitochkaning pastki nuqtasi bo'ksa chizig'iga 4-6 sm yetmaydi. | | |
| **Tushuntirish:** Qomatning turtgan qismlari gazlamada bir xilda taqsimlanishi uchun vitochkalar qomatning eng cho'qqi turtib chiqqan nuqtalariga yetkazilmaydi. | | | | |
| 40. | | Yon qirqimda $T_2$ nuqtadan har ikkala tomonga 3,2 sm belgilanadi. Ort bo'lakda $T_4$ va old bo'lakda $T_5$ ni belgilab, $G_2$ $T_4$ $B_4$ va $G_2T_5B_5$ – silliq botiq chiziq bilan tutashtiriladi. | | |
| 41. | | Old va ort etak chizig'i kengligi to'g'ri siluet uchun bo'ksa chizig'iga teng masofa olinadi, nim yopishgan siluet uchun 3-5 sm ko'proq va tanaga yopishgan siluet uchun 5 smga kengroq olinadi. | | |
| 42. | | Etak chizig'ining ort o'rta chizig'i ($N_1N_4$) ga doimo perpendikulyar bo'lishi shart. | | |
| 43. | | Yon qirqimlar bel chizig'idan yuqoriga va undan so'ng bel chizig'idan pastki uchastkalarda to'g'rilanadi. | | |
| 44. | | Old bo'lak etak qirqimi $A_3$ va $N_5$ (·) tekis tutashtiriladi. | | |
| **Eslatma:** ko'ylak, jaket, palto asos chizig'ini qurish bir xilda bajariladi, farqi faqatgina qo'shimchalarning (2-8 jadvaldan) kattaligida. | | | | |

9-jadval.

**Ort bo'lak yelka vitochkasining kattaligi**

| Gazlama tarkibi | Qomat turlari | | |
|---|---|---|---|
| | Kekkaygan | Normal | Bukchaygan |
| Yumshoq va titiluvchan | 1,5 – 2,0 | 2,-2,5 | 2,5-3 |
| Qattiq va quruq | 1,0 – 1,5 | 1,5 – 2,0 | 2,0 – 2,5 |




**3-rasm. Ayollar paltosining asos konstruktsiyasini qurish**

## Ayollar paltosi asos konstruktsiyasini modellash va yengni loyihalash

T.112 modulda ayollar paltosi uchun model tanlash, gazlama tanlash, qomatdan o'lchov olish, old va ort bo'lak asos konstruktsiyasini loyihalash bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Ushbu T-113 modul T-112 modulning davomi bo'lib, unda tavsiya etilgan model uchun yeng asos konstruktsiyasini qurish, old, ort, yeng asos konstruktsiyalarini modellash, yoqa chizmasini qurish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

### AYOLLAR MAVSUMIY PALTOSI UCHUN O'TKAZMA YENG ASOS KONSTRUKSIYASINI QURISH

**Namunaviy qomat o'lchami**. Razmer – 96 sm, $O_{elka}$ = 30,3 sm; $O_{bilak}$ = 16,5 sm; $D_{eng}$ = 55,6 sm; $PO_{elka}$ = 12 sm; $PO_{bilak}$ – model bo'yicha.

O'tqazma yeng asos konstruktsiyasini T-112 moduldagi palto ort va old bo'lagi AK chizmasi asosida quriladi.

Yeng qiyamasining o'miz bilan tutashmasini tekshirish uchun, old bo'lak asos konstruktsiyasida $P_1$ nuqtadan $P_5$ nuqtagacha bo'lgan masofa o'lchanib, uning vertikal diametri o'lchanadi. (T-112 modul 3-rasm).

Yeng o'mizining vertikal diametri va yeng qiyamasi balandligi old va ort bo'lak konstruktsiyasidan bevosita o'lchanadi. (1-jadval, 1 va 2-bandlar). Formulalar va o'zgarmas kattaliklar hamma razmerlar uchun bir xildir, agar matnda qo'shimcha o'zgarishlar keltirilmagan bo'lsa.

1-jadval.

### YENG ASOS KONSTRUKSIYASINI QURISH

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| | | ***Yeng bazis to'rini qurish (1-rasm).*** | | |
| 1. | $OO_1$ | *Yeng o'mizining vertikal diametri.* Asos konstruktsiyasida $P_1$ va $P_5$ nuqtalar to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi va bu chiziqning o'rtasida O (·) belgilanadi. O (·) dan ko'krak chizig'iga vertikal chiziq tushiriladi va $O_1$ (·) belgilanadi. | | |
| 2. | $O_1O_2$ | *Yeng qiyamasi balandligi* O (·) dan ↓ 1...2,5 sm o'lchab, $O_2$ (·) bilan belgilanadi. $O_1O_2$ - yeng qiyamasi balandligi. | $O_1O_2 = OO_1$ – (1-2,5) razmerga qarab.<br>44 - 46 razmer uchun 2,5 sm<br>48 - 50 razmer uchun 2,0 sm<br>52 - 54 razmer uchun 1,5 sm<br>56 - razmer va undan katta razmerlar uchun 1 sm | |
| 3. | $Sh_{ruk}$ | *Tayyor buyumda o'miz osti yeng kengligi.* Vertikal chiziq o'tkazib, unda yeng qiyamasi balandligi, $O_1O_2$ o'lchami qo'yiladi. $O_1$ (·) dan gorizontal to'g'ri chiziq o'tkaziladi, unda keyinchalik yeng kengligi o'lchami qo'yiladi. $P_{op}$ kattaligi 2-jadvaldan olinadi. | $Sh_{eng} = (0_{elka} + P0_{elka}) : 2 = (30 +12) : 2 = 21$ | 21 |
| 4. | $O_1R_p$ | *Old va tirsak chiziqlari holati.* $O_1$ nuqtadan o'ng va chap tomonga $R_p$ va $R_l$ nuqtalari qo'yiladi. $R_p$ va $R_l$ nuqtalardan yuqoriga vertikal chiziq chizib, $O_3O_4$ nuqtalar bilan belgilanadi. | $O_1R_p = O_1R_l = (O_{elka} + PO_{elka}) : 4 = (30 + 12) : 4 = 10,5$ | 10,5 |
| 5. | $O_3M$ | *Yeng uzunligi.* $O_3$ nuqtadan pastga. | $0_3M = D_{eng} – 1$ sm = 55,6 = 1 = 54,6 | 54,6 |
| 6. | $O_3L$ | *Tirsak chizig'i holati*, $O_3$ nuqtadan pastga<br>M va L nuqtalardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi. | $0_3L = 1 / 2\ D_{eng} + 3$ sm = 55,6 : 2 = 30,8 | 30,8 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. | $LL_1$ | *Tirsak chizig’idagi buklov.* L nuqtadan. Old buklov (perekat) $R_p$, $L_1$, M nuqtalar orqali o’tadi. | $LL_1$ = 1 sm<br>$LL_1 = 0,5 \div 0,7$<br>**Eslatma:** namlab-isitib ishlov berish qiyin bo’lgan gazlamalar uchun | |
| 8. | $MM_1$ | *Yeng uchi kengligi.*<br>M nuqtadan ←. | $MM_1 = (0_{bilak} + P0_{bilak}) : 2 = 14,25$<br>Yeng uchi kengligi model bo’yicha tanlanadi. | 14,25 |
| 9. | $M_1M_2$ | *Yeng uchi qiyaligi.*<br>$M_1$ nuqtadan pastga. $M_1$ va $M_2$ nuqtalar tutashtiriladi. $R_l$ va $M_2$ nuqtalarni birlashtirib, tirsak chizig’ida $L_2$ nuqta belgilanadi. | $M_1M_2$ = 1,5 – 2 sm | 14,25 |
| 10. | $L_2L_3$ | *Tirsak chizig’ini buklovi.* $L_2$ nuqtadan chapga. Tirsak buklov chizig’i $R_l$ , $L_3$ va $M_2$ nuqtalardan o’tadi. | $L_2L_3$ = 1,5 | 1,5 |
| 11. | 1) $R_p1$ | $R_p$ (·) dan ↑ | 1) $R_p1 = G_4 P_6$<br>(o’miz chizmasidan $R_p$ (·) dan o’lchanadi. | |
| | 2) $R_l R_3$ | $R_l$ (·) dan ↑ | 2) $R_lR_3 = G_1P_3$<br>(o’miz chizmasi $R_p$ (·) dan yuqoriga o’lchanadi. | |
| | 3) nazorat kertiklar | 1 (·) dan → | 1 – 1’ = 1,5 sm | |
| | | $R_3$ (·) dan ← | $R_3R_3$’ = 1,5 sm. | |
| | 4) $O_2O_6$ | $O_2$ (·) dan ← | $O_2O_6 = O_2 O_4 : 2$ | |
| | 5) $O_3O_5$ | $O_3$ (·) dan ← | $O_3O_5 = (O_2O_3) : 2 – 2$<br>$O_5$ va 1 ‘(·) lar $O_6$ va $R’_3$ (·) lar birlashtiriladi. | |
| | 6) $O_52$ | $O_5$ o’tmas burchak bissektrisasi bo’ylab. | $O_52$ = 2 sm | |
| | 7) $O_63$ | $O_6$ burchak bissektrisasi bo’ylab. | $O_63$ = 1 sm<br>Yeng qiyamasi $O_2$, 3, $R’_3$ va $O_2$ 2, 1’ (·) lar orqali birlashtiriladi. | |
| 12. | $0_20_{21}$ | $O_2$ nuqtadan o’ngga nazorat kertigi. | $O_2O_{21}$ = 0,7 sm | 0,7 |
| **Eslatma:** Bichish vaqtida ushbu nuqtada ozgina qirqim beriladi, yengni yeng o’miziga biriktirish vaqtida, ushbu nazorat kertigi yelka qirqimiga mos kelishi shart. | | | | |
| 13. | Yeng qiyamasi pastki qismini chizish. | 1) 1 (·) dan ← | 1-1‘’ = 1,5 | |
| | | 2) $R_3$ (·) dan→ | $R_3R_3$ ‘’ = 1.5 cm | |
| | | 3) $R_p$ (·) dan ← | $R_pG_2=G_2 G_4 + 0,5$<br>($G_2G_4$ chizmadan olinadi). | |
| | | 4) 4 (·) dan ↓ perpendikulyar bo’yicha. | 4 – 5 = 1 – 2 sm | |
| | | 5) $R_p$ (·) dan bissektrisa bo’ylab ← | $R_p$ 8 = $G_4$ 2 + 0,5<br>Yeng qiyamasi 1’, 8, $G_2$,5, $R’_3$ (·) lar orqali o’tadi | |
| ***Tirsak qirqimida vitochkali bir chokli yeng (2-rasm)*** | | | | |
| 14. | $O_1R_l$<br>$L_3L_{21}$<br>$M_2M_{11}$ | *Yengni biriktiruvchi chok holati tekshiriladi.* $O_1$ $L_{21}$, $M_{11}$ lar birlashtiriladi. | $O_1R_l = O_1R_p$<br>$L_3L_{21} = L_3L_1: 2$<br>$M_2M_{11} = M_2M : 2$ | |
| 15. | $R_pR_1$ | *Old qiyamasi bo’yicha yeng yoyilmasi.*<br>$R_p$ (·) dan → | $R_pR_1 = R_pO_1$ | |
| | $L_1L_{22}$ | $L_1$ (·) dan → | $L_1L_{22} = L_1L_{21}$ | |
| | $MM_3$ | M (·) dan → | $MM_3 = MM_{11}$ | |
| | $M_9$ $M_{31}$ | $M_3$ (·) dan ↓ | $M_3M_{31}$ = 0,5 | |
| | | $R_1$, $L_{22}$, $M_{31}$ (·) lar birlashtiriladi. | | |
| 16. | $R_lR_2$ | *Tirsak buklovi bo’yicha yeng yoyilmasi.*<br>$R_l$ (·) dan ← | $R_lR_2 = R_lO_1$ | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | $L_3L_{41}$ | $L_3$ (·) dan ← | $L_3L_{41} = L_3L_{21}$ | |
| | $M_2M_4$ | $M_2$ (·) dan ← | $M_2M_4 = M_2M_{11}$ | |
| | | $R_2$, $L_{41}$, $M_4$ nuqtalar birlashtiriladi. $R_l$ nuqtadan chapga $R_lL_3$ ga perpendikulyar o'tkazib $R_{21}$ nuqta belgilanadi. | | |
| 17. | $R'_36$ | $R'_3$ $R_{21}$ chiziqqa ↓ perpendikulyar $R'_3$, 7, $R_{21}$ nuqtalar birlashtiriladi. | $R'_36 = R'_3R_{21} : 2$<br>6 - 7 = 1 sm. | |
| 18. | | *Tirsak vitochkasini qurish:*<br>$L_3$ nuqtadan $L_3$ $M_2$ chiziqqa chapga perpendikulyar o'tkazib $L_{42}$ nuqta belgilanadi. Vitochka uchlari tenglashtirilib $L_{42}$ va $M_4$ nuqtalar birlashtiriladi. Vitochkani chizishda buklovga 1,5-2,0 sm yetkazmay qisqartiriladi. | | |

2-jadval

## Yeng qurishda $O_p$ o'lchamga qo'shimcha

| Yeng shakli to'g'risida ma'lumot | Qo'shimcha kattaligi $P_{op}$ sm da |
|---|---|
| | **Palto** |
| *Yopishib turadigan* | 5 – 7 |
| *Tor* | 7 – 9 |
| *O'rta* | 9,5 – 12 |
| *Kengaytirilgan* | 12 – 14 |
| *Keng* | 14,5 – 17 |

**Eslatma:** to'liq qo'lli qomat uchun $P0_{elka}$ ning kichik qo'shimchasini olish kerak.




**1-rasm. O`tqazma eng asosini chizish.**




**2-rasm. Tirsak vitochkali bir chokli o`tkazma eng chizmasi.**

## AYOLLAR PALTOSI ASOS KONSTRUKSIYASINI (AK) MODELLASH

Palto asos konstruktsiyasini modellash T-112 moduldagi model uchun ko'rsatilgan. (3-rasm).

*Ayollar paltosi AK ni modellash bosqichlari:*

- ort bo'lakni modellash;
- old bo'lakni modellash;
- engni modellash;
- yoqa konstruktsiyasini qurish.



**3-rasm. Ayollar mavsumiy paltosi tashqi ko`rinishi.**

### Ort bo'lakni modellash

Paltoni konstruktiv modellash AK chizmasida (112-modul 4-rasm) yoki boshqa BK chizmasida bajariladi.

Ort bo'lakda relef choklarining holati va o'rta chiziqda shlitsa loyihalanadi. (4-rasm).

Ort bo'lak yelka choki va yeng o'mizi chizig'i bo'yicha bir oz kengaytiriladi. O'miz chuqurligi 1,0...2,5 sm dan oshmasligi kerak.

Ort yelka vitochka qiymati teng ikkiga bo'linib, 1/2 qismi yeng o'miziga o'tkaziladi. Bu kattalik ort yeng o'mizini uzaytirish uchun beriladi. Yelka vitochkaning qolgan 1/2 qismi holati (o'rni) yana bir bor model eskiziga qarab aniqlanadi. Relef choklari vitochka tomonlaridan o'tgani uchun, eskizga mos ravishda vitochka o'rni yelka tomonga 1,0...2,0 sm ga ko'chiriladi. Bunda vitochka uchlari kurakka qaratilishi shart.

Relef chizig'i yelka va bel vitochkalari qiymatini hisobga olgan holda vitochkalar o'ng va chap tomonlaridan tushiriladi va etakkacha konus kengaytirish yordamida davom ettiriladi. (4-rasm).

Relef chizig'i holatini aniqlash model eskizi bo'yicha bajarilib, unga to'la mos bo'lishi shart. Etak qismini kengaytirish darajasi tanlangan gazlama xususiyatlariga (draplanuvchanlik va qattiqlik) bog'liq. Relef chiziqlari bel vitochkalari o'rni bilan mos tushmasligi mumkin. Birikuvchi yonma-yon bo'laklar relef chiziqlari shakli ko'krak uchastkasidan bo'ksagacha bo'lgan oraliqda bir xil yoki farq qilishi mumkin. Lekin har qanday holda ham birikuvchi bo'laklar qirqimlarining uzunliklari o'zaro teng bo'lishi uchun tekshiriladi.

Ort bo'lak yon chizig'ini (qirqimini) modellash uchun beldan etakkacha konus kengaytirish bajariladi. Etak chizig'i o'rni yana bir bor aniqlab olinadi.

Ort yon bo'lakning yelka uchastkasida koketka chizig'i holati aniqlanadi, u kesib olinadi.

Ko'rib chiqilayotgan model yeng o'mizi namunaviydan chuqurroq va yeng o'miz chuqurligi sathida bir oz kengaytirilgandir. Shuning uchun old va ort bo'laklar yeng o'mizi chuqurlashtiriladi. (4-rasm). Shlitsa uzunligi model eskizi bo'yicha aniqlanib, kengligi 5 sm dan kam bo'lmasligi kerak.

**Old bo'lakni modellash -** ko'krak vitochkasini ko'chirishdan boshlanadi. Ort bo'lak koketkasining yelka chok uzunligiga teng masofa $P_5$ nuqtadan yelka chok bo'ylab qo'yiladi va relef chizig'i o'rni aniqlanadi. Vitochka ko'chiriladi. Ko'krak vitochkasining yangi holatidan va bel vitochkasi tomonlaridan old relef chok loyihalanadi. Yon qirqim va relef chizig'ining beldan etakkacha oralig'ida konus kengaytirish bajariladi. Old va yon bo'laklar relef chizig'i uzunliklari tekshiriladi va tenglashtiriladi.




**4-rasm. Ayollar paltosi asos konstruktsiyasini modellash sxemasi.**

Old yeng o’mizi ham huddi ort bo’lakdagi kabi chuqurlashtirilib yangi o’miz chizig’i o’tkaziladi.

Old yon bo’lak yon qirqimining shakli ort yon bo’lak shakli va uzunligi bo’yicha muvofiqlashtiriladi.

Old yon bo’lakda koketka chizig’i holati belgilanib, qirqib olinadi. Koketka kattaligi ort koketkaga teng.

Old bo’lakda bort chizig’i holati aniqlanadi. Bort kengligi bir bortli paltolarda bezak baxyaqator mavjudligiga va tugma diametriga bog’liq.

Palto guruhidagi bir bortli kiyimlarda bort kengligi 3 . . . 4,5 sm, ikki bortli kiyimlarda bort kengligi 8 . . . 10 sm. Palto tugma va izmalari o’rni ko’pincha bel, bo’ksa, cho’ntaklar o’rni bilan

muvofiqlashtiriladi. Izmalar o'rni har qanday holda ham model eskiziga mos qilib belgilanadi. Agar bort chetida bezak baxyaqator bo'lsa, izma bort chizig'i tomonga 0,3 . . . . 0,5 sm ga suriladi.

Old o'rta bo'lak relef chizig'ida cho'ntak o'rni loyihalanadi. Cho'ntak chokda joylashgani uchun cho'ntak og'zi kattaligi ikkita kertik bilan belgilanadi. Cho'ntak og'zi kattaligi 16 . . . 17 sm.

## YENGNI MODELLASH

3-rasmdagi palto yengining model konstruktsiyasi bir chokli yeng asos konstruktsiyasi asosida chiziladi (2-rasm). Buning uchun asos konstruktsiyadan nusxa ko'chiriladi.

Palto yengi koketka bilan yaxlit bichilgan bo'lgani uchun uni konstruktiv modellash bir necha bosqichda bajariladi:

- eng qiyamasi balandligini o'zgartirish va tirsak vitochkasini yopish;
- eng o'rta chokini modellash;
- koketka bilan bichilgan yaxlit yengni modellash.

Yeng qiyamasi balandligi old va ort bo'lak yeng o'mizi chuqurlashuvi hisobiga 0,5 . . . 1,5 sm gacha ko'tariladi

Yeng qiyamasini ko'tarish uchun orqa qiyamada **a** nuqta belgilanadi va undan old qiyama tomonga to'g'ri chiziq o'tkaziladi. (**b** nuqta). Yeng **a** – b chiziq bo'yicha qirqib, yeng qiyamasining yuqori qismi ko'tariladi. (5 a, b-rasmlar).

Yeng o'mizi chuqurlashuvi va yengning kengayishi hisobiga uning shakli va konstruktsiyasi o'zgaradi, tirsak vitochkasiga zaruriyat qolmaydi. Yeng chizmasida tirsak vitochkasi yopiladi (5 b-rasm). Tirsak vitochkasi qiymatining 1/2 qismi yeng qiyamasiga va qolgan 1/2 qismi yeng uchiga ko'chiriladi. Agar yeng qiyama bo'yicha kengayib ketadigan bo'lsa, uning tirsak qismi va o'rta qismi bir-biri ichiga T nuqtada 1,5 sm gacha kirishtiriladi (toraytiriladi). T' lekin yangi yeng tirsakda tor bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda T nuqta joyida qoladi. Yeng qiyamasining yangi holati chiziladi.

Old, ort bo'laklardan iborat ikki chokli yengni qurish uchun old va ort bo'lak chizmasidan yeng o'mizi uzunligi o'lchanadi. Yangi yengning qiyamasining uzunligi o'miz uzunligi bilan solishtiriladi.

$$\mathbf{D_{qiyama} – D_{o'miz} = K}$$

Bu yerda: $D_{qiyama}$ – yeng qiyamasi uzunligi;
$D_{o'miz}$ – old va ort bo'lak yeng o'mizi uzunligi.
K – kattalik yeng qiyamasini kichraytirish (posadka) miqdorini xarakterlaydi.

$$\mathbf{O_2O_{21} = O_2O_{22} = K / 2 = 1{,}0 \; . \; . \; . \; 2{,}5 \; sm.}$$

$O_1$ nuqtadan o'ng va chapga 1,0 sm dan qo'yiladi va $O_{11}$ va $O_{12}$ nuqtalar belgilanadi.

$O_{21}$, $O_{11}$, $M_{11}$ nuqtalar egri chiziq bilan mayin birlashtiriladi va yeng old bo'lagi o'rta chizig'i chiziladi.

Ort bo'lak o'rta chizig'ini chizish uchun yeng uchida yeng tirsak vitochkani yopishdan hosil bo'lgan pastki vitochka kattaligiga teng miqdorda ort bo'lak o'rta choki chap tomonga suriladi. Ort yeng o'rta chizig'i $O_{22}$, $O_2$ va $M_{22}$ nuqtalardan o'tadi.

Old va ort bo'lak chizmasidan (4-rasm) old va ort koketkalar qirqib olinadi. So'ngra ort koketka $O_{22}$ nuqtasiga o'miz chizig'i qiyamasi ustiga yotqizilgan holda qo'yiladi. Old koketka yelka nuqtasi $O_{21}$ nuqtasi ustiga tushiriladi. Koketka konturlari chizib olinadi. Yangi yeng konturlari holati aniqlab olinadi.




а




б




в

г

**5-rasm. Ayollar paltosi engini modellash bosqichlari.**
a-umumiy ko`rinish; b-eng qiyamasi balandligini ko`tarish va tirsak vitochkasini yopish;
v-eng o`rta chokini modellash; g-koketka bilan yaxlit engni modellash.

## AYOLLAR PALTOSI YOQASINING CHIZMASINI CHIZISH

3-rasmdagi ayollar paltosining yoqasi qaytarma yoqa bo'lib, taqilmasi yuqorigacha. Palto yoqasi chizmasini chizish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar kerak bo'ladi:

- old va ort bo'lak bo'yin o'mizi uzunligi ($l_{bo'}$);
- yoqa o'rtasini ko'tarish qiymati;
- model bo'yicha yoqa kengligi;
- model bo'yicha yoqa uchi shakli.

Bo'yin o'mizi uzunligi old va ort bo'lak model konstruktsiyasi chizmasidan (4-rasm) metal lineyka vositasida o'lchanadi. Yoqa o'rtasini ko'tarish qiymati yoqaning bo'yinga yopishib turish darajasiga bog'liq. Bo'yinga juda yopishib turuvchi yoqalar uchun bu qiymat 1,5 . . . 3,0 sm; o'rtacha yopishib turdigan yoqalarda – 4,0 . . . . 6,0 sm; bo'yinda bemalol turadigan yoqalar uchun – 7,0 . . . 12,0 sm ni tashkil etadi;

Yoqani o'mizga ulash chizig'ini qurish uchun O nuqtada to'g'ri burchak chiziladi. O nuqtadan yuqoriga vertikal bo'ylab OV qiymat qo'yiladi. (6-rasm).

**OV = 3,0 – 4,0 sm**

O nuqtadan o'ngga gorizontal chiziq chiziladi va uni V nuqtadan o'tgan VA radius bilan kesiladi, hosil bo'lgan nuqta – A bilan belgilanadi.

$$VA = Dl_{bo'y} – a; \quad a = 0,5 . . . 1,5 \text{ sm}$$

A va V nuqtalar to'g'ri chiziq bilan birlashtiriladi. AV bo'lak yarmida birinchi va ikkinchi nuqtalar qo'yiladi.

$$(V\text{-}1) = VA /2$$

$$1\text{-}2 = 1,0 – 2,5 \text{ sm}$$

Bo'yin o'miziga ulash uchun egri chiziq A, V va 2 nuqtalardan o'tadi. Yoqa qaytarmasi modelga mos ravishda quriladi.




**6-rasm. Qaytarma yoqa konstruktsiyasining chizmasi**

$VV_1$ **= 2,0 . . . . 2,5 sm** (yoqa ko'tarmasi balandligi)

$V_1$ nuqta yoy orqali A nuqta bilan birlashtiriladi.

$V_1A$ – yoqa ko'tarmasi chizig'i;

$VV_2$ = 8,0 . . . 14,0 sm (yoqa kengligi)

**$AA_3$ = $VV_2$+1,0. $AA_3$** chiziq OA chiziqqa perpendikulyar o'tadi.

$$A_3A_4 = 4,0 . . . 5,0 \text{ sm.}$$

$V_2$ nuqta $A_4$ nuqta bilan to'g'ri chiziq orqali birlashtiriladi. Uning o'rtasida $A_6$ nuqta qo'yilib, undan $V_2A_4$ ga perpendikulyar chiqariladi.

$$V_2A_6 = (V_2A_4) / 2$$

$$A_6A_7 = 1,0 . . . . 1,5 \text{ sm}$$

Yoqaning qaytarma chizig'i silliq egri chiziq bilan $V_2$, $A_7$, $A_4$ nuqtalardan o'tkaziladi.

## VIII. KERAKLI O’QUV-JIHOZ, ASBOB – USKUNA VA ASHYOLAR:

- moda jurnallari, tayyor namunalar;
- palto bazali konstruktsiyasi;
- andoza chizish uchun maxsus qog’oz;
- chizg’ich, qalam, o’chirg’ich, sm. lenta, qaychi, tsirkul;
- T.112-moduldagi texnologik xarita;
- bo’r;
- qog’oz (kalka);
- Me’yoriy hujjatlar.

## Ayollar paltosining asosiy andozalarini tayyorlash

Ayollar astarli paltosi uchun asosiy, astar, oraliq va yordamchi andozalar tayyorlanadi. Asosiy andozalar avra gazlamadan bichiladigan bo’laklar uchun ishlab chiqiladi (old bo’lak, ort bo’lak, yoqa, yeng, cho’ntak, belbog’, adip); hosila andozalar astar va qotirma materialdan bichiladigan bo’laklar uchun, yordamchi andozalar esa – bo’laklarda petlya (izma), cho’ntak o’rnini belgilash, etagini to’g’rilash va h.k. uchun ishlab chiqiladi.

Palto uchun tanlangan avraning gazlama xususiyatlari T-112 modulda batafsil yoritilgan. Furnituraga tugma va iplar, bog’ich, knopka (piston) kabilar kiradi.

Furnitura va qotirma gazlama turlari ishlab chiqarishda (korxonada) qabul qilingan texnologiya va jihozlarga bog’liq holda tanlanadi.

Palto andozalarini tayyorlash uchun quyidagi dastlabki ma’lumotlar bo’lishi shart; model konstruktsiyasi chizmasi. T-113 moduldan kiyim bo’laklarini yig’ish chizmasi, tikish uchun tavsiya etilgan gazlamalar xususiyatlari.

Ayollarning astarli paltosi model konstruktsiya chizmasida quyidagi ma’lumotlar bo’lishi shart:

- konstruktiv chiziqlar: ko’krak, bel, bo’ksa, o’rta chiziq, vitochka, buklov va h.k.;
- izma va tugmalar, cho’ntaklar o’rni, nazorat kertiklar (ba’zi hollardagina).

Ayollar paltosining model konstruktsiya chizmasi T.113-modulning 4-rasmda keltirilgan bo’lib, ushbu modulda asosiy andozalar ishlab chiqish bo’yicha ko’rsatmalar berilgan.

Palto bo’laklariga texnologik ishlov berish tartibi T-117. . . . T-125 modullarda batafsil yoritilgan bo’lib, chok haqqi qiymatlarini aniqlashda ishlatiladigan jihozlar va material xossalari (titiluvchanlik, sitiluvchanlik, cho’ziluvchanlik) har bir muayyan sharoit va gazlamaga bog’liq holda konkret tarzda hisobga olinadi.

Ayollar paltosi bo’laklarining andozalarini qurish va rasmiylashtirish tartibi 1-rasmda, palto andozalari spetsifikatsiyasi (ro’yxati) 1-jadvalda, chok haqqi qiymatlari 2-jadvalda, bo’laklarda tanda ipi yo’nalishi va undan mumkin bo’lgan chetga og’ish qiymati 3-jadvalda berilgan.

Andozalar birikuvchi qirqimlar uzunligi va konfiguratsiyasi bo’yicha solishtiriladi va muvofiqlashtiriladi. Andozalar spetsifikatsiyasida bir kiyim komplektiga kiruvchi bo’laklar tartibi va soni keltiriladi. Andozalar qirqilgach, texnik shartlar asosida rasmiylashtiriladi: har bir bo’lakka markirovka belgisi qo’yib chiqiladi: kiyim nomi, razmeri, bo’yi, bo’lak nomi, bichilgan bo’laklar soni. Andozalarda tanda ipi yo’nalishi va uning yo’l qo’yiladigan chetga og’ish kattaligi, uloq chiziqlar, nazorat kertiklar aniq ko’rsatiladi. Kattaroq bo’lakda barcha andozalar ro’yxati keltiriladi.

1-jadval.

**Ayollar paltosi andozalarining spetsifikatsiyasi**

| Bo'lak nomi | Belgi si | Soni | | Simmetrik belgisi |
|---|---|---|---|---|
| | | Andoza | Bichiqda | |
| Ort o'rta bo'lak | 01 | 1 | 2 | + |
| Ort yon bo'lak | 02 | 1 | 2 | + |
| Old yon bo'lak | 03 | 1 | 2 | + |
| Old o'rta bo'lak | 04 | 1 | 2 | + |
| Ostki yoqa | 05 | 1 | 2 | + |
| Ustki yoqa | 06 | 1 | 1 | + |
| Yeng old bo'lagi | 07 | 1 | 2 | + |
| Yeng ort bo'lagi | 08 | 1 | 2 | + |
| Adip | 09 | 1 | 2 | + |
| Adip (qo'yi qismi) | 10 | 1 | 2 | + |
| Belbog' | 11 | 1 | 2 | + |

2-jadval.

**Ayollar paltosi avra bo'laklarining andozlariga qo'yiladigan chok haqqi**

| Bo'lak belgisi | Bo'lak nomi | Qirqim nomi | Chok haqqi qiymati, sm |
|---|---|---|---|
| 01 | Ort o'rta bo'lak | Bo'yin o'mizi, relef o'rta qirqim, yelka. | 1,0 |
| 02 | Ort yon bo'lak | Yeng o'mizi, relef, yelka, yon qirqimlar | 1,0 |
| | | Etak qirqim | 3,0 |
| 03 | Old yon bo'lak | Relef, koketka, yon, yeng o'mizi qirqimlari | 1,0 |
| | | Etak qirqimi | 3,0 |
| 04 | Old o'rta bo'lak | Relef, yelka, qirqim | 1,0 |
| | | Etak | 3,0 |
| 05, 06 | Ostki yoqa va ustki yoqa | Yoqa uchlari, cheti | 0,7 . . 0,8 |
| | | Yoqani bo'yin o'miziga ulash qirqimi | 0,8 |
| 07, 08 | Old yeng, ort yeng | Yeng qiyamasi va koketka qirqimi | 1,0 |
| | | O'rta qirqim, ichki qirqim | 1,0 |
| | | Yeng uchi | 3,0 |

3-jadval.

**Palto bo'laklarida tanda ipi yo'nalishi**

| Bo'lak belgisi | Bo'lak nomi | Bo'laklarda tanda ipi yo'nalishi | Mumkin bo'lgan chetga chiqish, (%). |
|---|---|---|---|
| 01 | Ort o'rta bo'lak | O'rta chiziqning beldan pastki qismiga parallel | 2 |
| 02 | Ort yon bo'lak | Bel chizig'iga perpendikulyar | 11 |
| 03 | Old yon bo'lak | Bel chizig'iga perpendikulyar | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 04 | Old o'rta bo'lak | Bort chizig'iga parallel | 1 |
| 05 | Ostki yoqa | O'rta chiziqqa parallel | 3 |
| 07, 08 | Orqa va old yeng | Ichki o'rta qirqim uchlarini birlashtiruvchi chiziqqa parallel | 3 |

Andozalarga kertik qo'yish tartibi 4-jadvalda berilgan.

4-jadval.

**Palto avra bo'laklarida kertiklar o'rni**

| **Bo'lak nomi va raqami** | **Qirqim nomi** | **Kertik o'rni** |
|---|---|---|
| 01-ort o'rta bo'lak. | O'rta qirqim. | 1)-bel chizig'ida:<br>2)-bo'ksa chizig'ida. |
| | Relef qirqim. | 1)-bel chizig'ida<br>2)-bo'ksa chizig'ida.<br>3)-etakdan 25-30 sm masofada.<br>4)-elkada koketka kengligiga teng masofada. |
| 02-ort yon bo'lak. | Relef qirqim. | 1)-bel chizig'ida.<br>2)-bo'ksa chizig'ida.<br>3)-etak qirqimidan 25-30 masofada. |
| | Yon qirqim. | 1)-bel chizig'ida.<br>2)-bo'ksa chizig'ida.<br>3)-etakdan 25-30 sm masofada. |
| | Yeng o'mizi. | Yon qirqim cho'qqisidan 6-7 sm masofada. |
| 03-old yon bo'lak. | Yon qirqim. | 1)-bel chizig'ida.<br>2)-bo'ksa chizig'ida.<br>3)-etakdan 25-30 sm masofada. |
| | Relef qirqim. | 1)-bel chizig'ida.<br>2)-etakdan 25-30 sm masofada.<br>3)-cho'ntak og'zi o'rni uchun kertiklar:<br>4)-bel chizig'idan 5,5-5sm masofada 4-5 q 16-18 sm |
| | Yeng o'mizi | 1) – yon qirqim cho'qqisidan 5-6 sm masofada.<br>2) – yelka nuqtasidan pastga 7-8 sm masofada. |
| 04-old o'rta bo'lak. | Relef qirqim. | 1)-elkada old koketka kengligiga teng masofada.<br>2)-bel chizig'ida.<br>3)-etak qirqimidan 25-30 sm masofada.<br>4,5)-cho'ntak og'zi o'rniga qo'yilgan kertiklar huddi old yon bo'lak kabi. |
| | Bo'yin o'mizi. | Bo'yin o'mizida bort chetidan 4 sm masofada, yoqani o'mizga ulash o'rni. |
| 05-ostki yoqa. | Bo'yin o'miziga ulash qirqimi. | 1)-yoqa o'rtasida. |
| 06-ustki yoqa. | | 2)-elka choki o'rnida. |
| 07-eng old bo'lagi. | Ostki ichki qirqim. | 1)-ichki cho'qqisidan 8-10 sm masofada.<br>2)-eng uchidan yuqoriga 12-15 sm masofada. |
| | Ustki qirqim. | 1-qirqim cho'qqisidan 5-6 sm masofada.<br>2)-eng qiyamasi balandligi va chizig'i sathida.<br>3)-eng uchini bukish chizig'idan 10-12 sm masofada. |

| | | |
|---|---|---|
| | O’miz qiyamasi qirqimi. | 1)-koketka chizig’i va qiyama chiziq kesishgan nuqtada.<br>2)-eng ichki yon qirqimi cho’qqisidan 5-6 sm masofada.<br>3) 1-kertikdan qiyama chizig’i bo’ylab 7-8 sm masofada. |
| 08-eng ort bo’lagi. | Ostki (ichki) qirqim. | Huddi old bo’lakdagi bir nomli qirqim kabi. |
| | Ustki qirqim. | Huddi old bo’lakdagi bir nomli qirqim kabi. |
| | Yeng qiyamasi qirqimi. | 1)-koketka chizig’i va qiyama chizig’i kesishgan nuqtada.<br>2)-eng ichki yon qirqimi cho’qqisidan 6-7 sm masofada. |


01
02
03
04
1.0
3.0
18-20
4




**1-rasm. Palto asosiy bo’laklarining andozalarini qurish sxemasi**

01-ort o’rta bo’lak; 02-ort yon bo’lak; 03-old yon bo’lak; 04-old o’rta bo’lak; 05-ostki yoqa; 06-ustki yoqa; 07-eng old bo’lagi; 08-eng ort bo’lagi; 09- adip;
10-adip (qo’yi qismi); 11-belbog’




**2-rasm. Ayollar paltosi yoqa bo'laklarining andozalarini qurish sxemasi:**

05-otki yoqa;
18-ostki yoqaning yelimli qotirmasi;
30-ostki yoqaning tayyor shabloni (ostki yoqani qirqib to'g'rilash uchun);
06-ustki yoqa.

# Ayollar paltosining astar va qotirma andozalarini tayyorlash

## Palto astar bo’laklari andozalarini tayyorlash

Astar gazlamani tanlashda uning rangi, fakturasi (sirt holati), pishiqligi kabi xususiyatlari e’tiborga olinadi. Astar uchun sun’iy va shoyi gazlamalar tavsiya etiladi.

Qotirma materiallarga asosan paltoning old bo’lagini, adip, yoqa yelka va o’miz qirqimlarini mustahkamlash uchun mo’ljallangan flizelin, dublirin, yelimli uqa va boshqalar kiradi. Furnituraga tugma va iplar, bog’ich, knopka (piston) kabilar kiradi.

Furnitura va qotirma gazlama turlari palto tikiladigan korxonada qabul qilingan texnologiya va jihozlarga bog’liq holda tanlanadi.

Astar bo’laklari andozalari avra (asosiy) bo’laklar bazasida quriladi. Buning uchun astar gazlamaning quyidagi xossalarini inobatga olish zarurdir.

- **Kirishuvchanlik.** Astar bo’lagi tanda ipi yo’nalishi bo’yicha avradan kattaroq (uzunroq) qilib bichiladi, chunki astarning kirishuvchanligi avra gazlamadan qoidaga ko’ra ko’proqdir.
- **Astar va avra gazlamaning turli darajada cho’zilishi:** shuning uchun ort bo’lak astarida cho’zilish kuchi yo’nalishi bo’yicha «qo’shimcha haq» loyihalanadi.
- **Shakl berish qobiliyatining turlichaligi.** Astar bo’laklarida gazlamani namlab isitib ishlov berib kirishtirish o’rniga (eng o’mizida) vitochka loyihalanadi:
- **Material qalinligi.** Yupqa gazlamalardan tikilgan buyumlarda astar bo’lagining kengligi bo’yicha avrani deyarli qaytaradi. Qalin paltoda astar avraga nisbatan kengroq bichiladi.

Astar bo’laklari andozalarini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor berilishi kerak:

- astar bo’laklarini bichishda ba’zi uchastkalarda (masalan etagi bo’yicha) astar avradan atayin kengroq bichiladi. Sababi – texnologik ishlov berishda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan noaniqliklarni oldini olish. Huddi shunday, yeng astari avradan kengroq bichiladi.
- palto bo’laklarida astar yeng o’mizi, avra bo’lagiga nisbatan 1 sm uzunroq bo’ladi;
- ort bo’lak bo’yin o’mizi uzunligi avra bo’lagidan 0,3 sm ga kattaroq bichiladi;
- astarni adipga ulash qirqimini loyihalashda adip qirqimining ichiga biroz kiritiladi: yelkada 2,5-3,0 sm; ko’krak sathida 2,0-2,5 sm, etak sathida 1,0-1,5 sm (2-rasm).
- eng astari andozasini chizish yeng uchidan boshlangani ma’qul, chunki yeng yon qirqimlarining uzunligi bo’yicha tenglash osonroqdir;
- ort bo’lak astarida tanda ipi yo’nalishi ort bo’lak o’rta chizig’iga parallel, old bo’lakda – bort chizig’ining pastki qismiga parallel, yengda yeng ichki o’rta qirqimi uchlarini birlashtiruvchi chiziqqa parallel;
- palto etagi konussimon kengayganda va avradan alohida (ochiq holda) tikilganda astar bo’lagi etak qismida avradan torroq olinadi;
- old bo’lak astarini adipga ulash qirqimi adipdan uzunroq bichiladi, chunki astar va avra gazlamaning kirishuvchanligi turlichadir.
- palto sirtida astar choklarining o’rni bo’rtib qolmasligi uchun astar bo’laklari konstruktsiyasi avra bo’laklari qirqimlari bo’yicha loyihalanadi yoki yaxlit bichiladi;
- palto bichimi yaxlit yengli yoki reglan bo’lsa, astari boshqa bichimda masalan, ikki chokli o’tqazma yengli qilib loyihalanishi mumkin. Yeng astari ichki chokli qilib bichiladi. 1-rasmda astar bo’laklari andozalarini qurish sxemasi ko’rsatilgan.


1.0
3.5
0.7
15
1.5
1.0
14
3.5
0.8
1.5
16
26 – 30
R = 6,0
2,0
17 – 18
Олд бўлак




**1-rasm. Astar bo'laklari andozalarini qurish sxemasi**
12-ort bo'lak astari; 13-old bo'lak astari; 14-old yeng astari;
15-ort yeng astari; 16-cho'ntak xalta.

1-jadval.

**Astar va qotirma bo'laklar andozalari spetsifikatsiyasi**

| Bo'lak nomi | Belgi si | Soni | | Simmetrik belgisi |
|---|---|---|---|---|
| | | Andoza | Bichiqda | |
| Ort bo'lak astari | 12 | 1 | 2 | + |
| Old bo'lak astari | 13 | 1 | 2 | + |
| Old yeng astari | 14 | 1 | 2 | + |
| Ort yeng astari | 15 | 1 | 2 | + |
| Cho'ntak xalta | 16 | 1 | 4 | + |
| Old bo'lak qotirmasi | 17 | 1 | 2 | + |
| Ostki yoqa qotirmasi | 18 | 1 | 2 | + |
| Adip qotirmasi | 19 | 1 | 2 | + |
| Ort bo'yin o'mizi qotirmasi | 20 | 1 | 2 | + |
| Ort yeng o'mizi qotirmasi | 21 | 1 | 2 | + |
| Old yeng o'mizi qotirmasi | 22 | 1 | 2 | + |
| Old yengda yelka qotirmasi | 23 | 1 | 2 | + |
| Ort yengda yelka qotirmasi | 24 | 1 | 2 | + |
| Shlitsa qotirmasi | 25 | 1 | 2 | + |
| Cho'ntak og'zi qotirmasi | 26 | 1 | 4 | + |
| Yelka yostiqchasi | 27 | 1 | 2 | + |
| Yelka yostiqchasi 2-qavati. | 28 | 1 | 2 | + |
| Yeng uchiga qotirma | 29 | 1 | 2 | + |
| Ostki yoqa tayyor shabloni. | 30 | 1 | 1 | - |

2-jadval.

**Ayollar paltosi avra bo'laklari andozlariga qo'yiladigan chok haqqi**

| Bo'lak belgisi | Bo'lak nomi | Qirqim nomi | Chok haqqi qiymati, sm |
|---|---|---|---|
| 12 | Ort bo'lak | Bo'yin o'mizi, o'rta qirqim yelka. | 1,0 |
| | | Yeng o'mizi, yelka, yon qirqimlar | 1,0 |
| 13 | Old bo'lak | Yon, yeng o'mizi qirqimlari | 1,0 |
| | | Bort qirqimi | 1,0 |
| | | Etak | 3,0 |
| 14, 15 | Old yeng, ort yeng | Yeng qiyamasi qirqimi | 1,0 |
| | | O'rta qirqim, ichki qirqim | 1,0 |
| | | Yeng uchi | 3,0 |
| 16 | Cho'ntak xaltasi | Cho'ntak og'zi qirqimi | 1,0 |
| | | Cho'ntak xalta chetlari | 1,0 |

3-jadval.

**Palto astar bo'laklarida tanda ipi yo'nalishi**

| Bo'lak belgisi | Bo'lak nomi | Bo'laklara tanda ipi yo'nalishi | Mumkin bo'lgan chetga chiqish, (%). |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12 | Ort bo'lak | O'rta chiziqqa parallel | 1 |
| 13 | Old bo'lak | Bort chizig'ining pastki qismiga parallel | 1 |
| 14, 15 | Old yeng, ort yeng | Ichki o'rta qirqim uchlarini birlashtiruvchi chiziqqa parallel | 5 |
| 16 | Cho'ntak xaltasi | Cho'ntak og'zi qirqimiga parallel | 5 |

## PALTO QOTIRMA BO'LAKLARI ANDOZALARINI TAYYORLASH

Palto bo'laklariga qotirma qo'yish palto shakliga, avra gazlamasining xususiyatlariga, (qalinligi, cho'ziluvchanligi, draplanuvchanligi va boshqalar) avra materiali turiga bog'liq.

Palto bo'laklariga qotirma qo'yish korxonada qabul qilingan ishlov berish texnologiyasiga ham bog'liq.

Hozirgi vaqtdagi zamonaviy texnologiyaga asosan palto bo'laklarining ba'zilarigagina bir qavat qotirma qo'yilib frontal (butun yuza bo'ylab) tarzda dublirin yopishtiriladi va bort qotirmasi qatlamlari soni kamaygan. Plash, charm, sun'iy charmdan, yumshoq gazlamalardan tikilgan paltolar bort qotirmasiz tikilishi ham mumkin.

O'quvchilar palto bo'laklariga frontal tarzda qotirma qo'yishning turli usullari bilan nazariy darslarda tanishadilar.

Misol tariqasida 2-rasmda tavsiya etilgan palto modeli uchun qotirma bo'laklari andozalarini qurish sxemasi keltirilgan.


0,3-0,5
0,3-0,5
25
3,0


0,2
20
3,0


0,3-0,5
3,5
0,3-0,5
29


0,5
24


0,5
23




**2-rasm. Ayollar paltosi qotirma bo’laklarini qurish sxemasi**

19-adip qotirmasi; 20-ort bo’yin o’mizi qotirmasi; 21-ort yeng o’mizi qotirmasi; 22-old yeng o’mizi qotirmasi; 23-old yengda yelka qotirmasi; 24-ort yengda yelka qotirmasi; 25-shlitsa qotirmasi; 29-eng uchi qotirmasi.

## Ayollar paltosining bo’laklarini bichish

Gazlama tejamliroq ishlatilishi uchun ma’lum qoidalarga rioya qilish zarur. Masalan, katak yoki yo’l-yo’l gulli gazlamalarni bichish uchun mo’ljallangan bo’rlama tayyorlanganda andozalarni shunday joylashtirish kerakki, kiyim tikilgandan keyin ham uning bo’laklaridagi rasmlar o’zaro mos tushsin. Tvid, velvet, drap, velyur, kashemir kabi tukli gazlamalardan tikilgan paltolar barcha bo’laklarining tuki yuqoriga yo’nalgan bo’lishi kerak, aks holda kiyim ko’p ishqalanadigan joylari yaltirab qoladi.

Gulsiz sidirg’a gazlamalarni bichishga mo’ljallangan bo’rlama tayyorlash uchun andozalarni qarama-qarshi joylashtirsa ham bo’ladi. Agar bichiladigan gazlama yo’l – yo’l yoki katak bo’lsa, tikilayotganda yo’llari yoki kataklarini to’g’ri keltirish uchun bo’laklar mo’ljallangandan kattaroq qilib bo’rlanadi. Bunda bo’lak bichiladigan gazlama qaysi usulda to’shalishi, qaysi bo’lak tayyor kiyimning qaysi joyida qanday joylashishini hisobga olish kerak. Shunda kiyim bo’laklarining hamma tomonini barobar kengaytirmay, balki bir tomonini kengaytirib bo’rlash kifoya bo’ladi. Old bo’lakning bort tomoni, adipning yuqori bo’yin o’miziga yaqin tomoni, yoqaning qaytarma va uchlari kengaytiribroq bo’rlanadi.

Gazlama sidirg’a bo’lsa, chiqindi kamroq, guldor yoki tukli bo’lsa, ko’proq chiqadi, chunki tukli yoki guldor gazlamalar uchun andozalarni joylashtirishda kengaytirib bo’rlash kabi qator shartlarni hisobga olish kerak. Andozalarni zichroq joylashtirish uchun, oldin katta bo’laklarni qo’yib, ular orasiga mayda bo’laklar joylashtiriladi.

Avval katta bo’laklar joylashtriladi, so’ngra ular orasiga mayda bo’laklar joylashtiriladi. Joylashmani bajarishda bichiq bo’laklar soniga ayniqsa e’tibor berish zarur. Simmetrik bo’laklar bir tomonga qarab qolmasligi uchun 1-jadvaldagi bo’laklarning simmetriya belgisiga katta ahamiyat berilishi shart. Aks holda bitta bo’lak ikki marta bichib qo’yiladi.

Andozalar gazlama ustiga joylashtirilib bo’rlanadi. Joylashmadan chiqindi kam chiqishi uchun adipga, yeng astariga uloq qo’yilishi mumkin. Adip ikki yoki uch bo’lakdan iborat qilib bichilishi mumkin. Bo’rlamada bo’r chizig’ining qalinligi 1-2 mm dan oshmasligi kerak. Bo’rlamada albatta kertiklar o’rni bo’rlanishi shart.

Bichishga mo’ljallangan gazlama ko’rikdan o’tkaziladi, to’qimachilik nuqsonlari aniqlanadi, dekatirovka qilinib (suv purkab yoki namlab) dazmollanadi.

Joylashmaning sifatini baholovchi ko’rsatkich chiqindi qiymatidir.

Korxonada andozalar joylashmasi namunaviy sxemalar bo’yicha bajariladi. Namunaviy sxemalar gazlamaning ma’lum eniga mo’ljallangan, kiyim turli razmer va bo’yi bo’yicha andozalar o’zaro moslashtirilgan, kam chiqindi chiqish imkonini beruvchi joylashmadir.

Hozirgi vaqtda zamonaviy korxonalarda turli model va bichimdagi kiyim andozalarini har xil enli gazlama ustiga ratsional joylashtirish bo’yicha tavsiyalar mavjud bo’lib, ularning aksariyati joylashmani bajarishdagi texnik shartlarda o’z aksini topgan.

1-jadvalda paltoning avra, astar, qotirma bo’laklari ro’yxati, 2-jadvalda avra va astar, qotirma bo’laklarida tanda ipi yo’nalishi va unga mumkin bo’lgan chetga og’ish qiymatlari, 1-3 rasmlarda ayollar mavsumiy paltosining avra, astar va qotirma bo’laklari ko’rinishi berilgan.



**1-rasm. Palto asosiy bo’laklari andozalarini qurish sxemasi**

01-ort o’rta bo’lak; 02-ort yon bo’lak; 03-old yon bo’lak; 04-old o’rta bo’lak; 05-ostki yoqa; 06-ustki yoqa; 07-eng old bo’lagi; 08-eng ort bo’lagi; 09- adip; 10-adip (qo’yi qismi); 11-belbog’




**2-rasm. Astar detallarining andozalarini qurish sxemasi va ayollar paltosining qotirma bo`laklarini qurish sxemasi**

12-ort bo`lak astari; 13-old bo`lak astari; 14-old eng astari; 15-ort eng astari; 16-cho`ntak xalta 19-adip qotirmasi; 20-ort bo`yin o`mizi qotirmasi; 21-ort eng o`mizi qotirmasi; 22-old eng o`mizi qotirmasi; 23-old engda elka qotirmasi; 24-ort engda elka qotirmasi; 25-shlitsa qotirmasi; 29-eng uchi qotirmasi.

## Hulosa

«Tikuvchilik buyumlarini buyurtma asosida konstruktsiyalash» fanining maqsad va vazifalari. Bu fanning maqsadi bo'lajak kasb ta`limi o'qituvchilarini o'z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalash, ularga tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda kattalar va bolalar gavda turlariga qarab buyumning asos chizmalarini chizish bo'yicha zarur bilim va amaliy ko'nikmalar berishdan iboratdir. Dastur mustaqil O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga binoan mutaxassis kadrlar tayyorlashda bugungi kun talablarini hisobga olgan holda tuzilgan.

«Tikuvchilik buyumlarini buyurtma asosida konstruktsiyalash» fanining vazifasi talabalarga erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini loyihalash jarayonida kattalar va bolalar gavda turlarini e`tiborga olish, yakka tartibda buyum ishlab chiqarishda kiyimlarni bosqichma-bosqich tayyorlanish jarayonlarini o'rgatish hamda talabalarda kiyimlarni loyihalashning eng samarali usullarini tanlay olish ko'nikmalarini hosil qilishdir.

«Tikuvchilik buyumlarini buyurtma asosida konstruktsiyalash» fanini o'qish natijasida talabalar quyidagi bilimlarni egallashlari kerak:

- Kiyim to'ғrisida umumiy ma`lumotlar, ularga qo'yiladigan talablar;
- Erkaklar, ayollar va bolalar gavda tuzilishining xususiyatlari va farqlanish belgilari;
- Odam tanasining o'lchov belgilarini olish usullari;
- Kiyimlarni boshlanғich chizmalarini qurish usullari;
- Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini loyihalash;
- Zamonaviy moda yo'nalishi asosida kiyimlarni texnik modellash asoslari;
- Buyurtmachi qomati gavda tuzilishiga mos kiyimlarni loyihalash xususiyatlari.

Talabalar bu fan bo'yicha quyidagi ko'nikmalarni hosil qilgan bo'lishi lozim:

- Odam gavdasidan o'lchov olish va ularni to'ғri belgilay olish;
- Turli bichimdagi kiyimlar asos konstruktsiyasini chizish va ularni tahlil qila olish;
- Kiyim eskizlarini yuqori did bilan tasvirlay olish va texnik modellash, buyum andozasini tayyorlash;
- Buyurtmachi gavda tuzilishi xususiyatlariga qarab kiyimlarni badiiy loyihalash va konstruktsiyalash.

Bu fan kasb ta`limi (Servis) mutaxassisligida o'qitilib, shu yo'nalishga kirgan ko'pgina fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Mazkur o'quv fanini o'rganish uchun talabalar «Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va texnologiya asoslari», «Tikuvchilik buyumlarini buyurtma asosida ishlab chiqarish va ta`mirlash texnologiyasi», «Kasb ta`limi praktikumi», «Kostyum kompozitsiyasi asoslari», «Amaliy antropologiya asoslari» kabi fanlardan tegishli bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

«Tikuvchilik buyumlarini buyurtma asosida konstruktsiyalash» fanini o'qitishda ma`ruzalar va amaliy mashғulotlaridan foydalaniladi. Unda mavzuga oid plakatlar, slaydalar, mulyajlardan foydalanilib, dars mavzulari mustahkamlanib boriladi. Bu mashғulotlar talabalarni kitoblar bilan ishlashga o'rgatadi.

Mashғulotlarda ma`ruzalarni tahlil qilishda interaktiv texnologiyalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. B.S.Sakulin, e.K.Amirova. “Konstruirovanie mujskoy i jenskoy odejdo`”. Moskva, 2000 g.
2. Komilova X.Ḱ., Hmroeva N.K. “Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash”. Toshkent “Moliya”. 2003 y.
3. YAnchevskaya E.A. «Ayollar ust kiyimini konstruktsiyalash». Toshkent. «O’qituvchi». 1998y.
4. R.P.Fish. «Konstruirovanie mujskoy odejdo` na figuro` s otkloneniem».
5. Q.M.Abdullaeva. «Tikuvchilik buyumlarini loyiḱalash va modellashtirish asoslari». Toshkent. 2003 yil.
6. I.YA.Grinshpan. «Konstruirovanie mujskoy verxney odejdo` po individual’no`m zakazam». Moskva, Legprombo`tizdat, 1987 g.
7. T.M.Fial’ko. Uchimsya kroit’ i shit’. Odejda dlya mujchin i detey. Minsk. Xelton. 2000 g.
8. YA sama delayu vo`kroyki. Moskva, «Izdatel’stvo AST», 2003 g.
9. A.I.Marto`nova, E.G.Andreeva. «Konstruktivnoe modelirovanie odejdo`». Moskva, 2002 g.
10. Rogova A.P. «Erkaklar va bolalar ustki kiyimini konstruktsiyalash asoslari». Toshkent. «O’qituvchi» nashriyoti. 1988 y.
11. SHershneva L.P. «Osnovo` konstruirovaniya jenskoy i detskoy odejdo`». Moskva. 1987 g.